



UO‘K::327:94(584.4+100)"17-18"

Sirojiddin BAROTOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: sirojiddinbaratov1985@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti O.Normatov taqrizi ostida

POPULAR UPRISINGS IN THE BUKHARA KHANATE FROM THE SECOND HALF OF THE 17TH CENTURY TO THE MID-18TH CENTURY

Annotation

This article analyzes the popular uprisings that took place in the Bukhara Khanate from the second half of the 17th century to the mid-18th century. In particular, it highlights the main factors behind these uprisings, including the increasing tax burden, the oppression of local officials, droughts, and the intensification of internal conflicts, which led to a sharp decline in the living standards of the population. The study also reveals that some uprisings took on a large-scale character and, in certain cases, were used as a political tool by the leaders of major tribal groups.

Key words: Zarafshan Valley, Miyonqol Region, "The Second Sahibqiron," Qurama, Mountainous Badakhshan, historian, Kazakhs, Karakalpaks, political fragmentation, Yuz tribe, Hisor Uprising, monetary reform, Parvonachi, Kafir Khan, Qizilbash.

НАРОДНЫЕ ВОССТАНИЯ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XVII – СЕРЕДИНЕ XVIII ВЕКА

Аннотация

В данной статье анализируются народные восстания, происходившие в Бухарском ханстве во второй половине XVII – середине XVIII века. В частности, выделяются основные причины восстаний, такие как усиление налогового бремени, насилие со стороны местных чиновников, засуха и обострение внутренних вооружённых конфликтов, что привело к резкому снижению уровня жизни населения. В исследовании отмечается, что ряд восстаний носил масштабный характер, а в некоторых случаях использовался лидерами крупных племён как политический инструмент.

Ключевые слова: Зеравшанская долина, регион Миёнкаль, «второй Сахибқирон», Курама, горный Бадхашан, историк, казахи, каракалпаки, политическая раздробленность, племя Юз, Гиссарское восстание, денежная реформа, парваначи, Кафирхан, кызылбаши.

XVII ASRNING IKKINCHI YARMI-XVIII ASRNING O‘RTALARIGACHA BO‘LGAN DAVRDA BUXORO XONLIGIDA XALQ QO‘ZG‘OLONLARI

Аннотация

Ushbu maqolada XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrning o‘rtalariga qadar Buxoro xonligida sodir bo‘lgan xalq qo‘zg‘olonlari tahlil qilingan. Xususan, mazkur davrda qo‘zg‘olonlarning asosiy omillari sifatida soliqlar yukining ortishi, mahalliy amaldorlarning zo‘ravonligi, qurg‘ochilik va o‘zaro urushlarning kuchayishi natijasida xalq turmush darajasining keskin pasayib ketganligi ko‘rsatiladi. Tadqiqotda qo‘zg‘olonlarning keng qamrovli tus olgani va ba‘zi hollarda yirik qabilalar sardorlari tomonidan siyosiy vosita sifatida ishlatilganligini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: Zarafshon vodiysi, Miyonqol mavzesi, “ikkinchi sohibqiron”, qurama, tog‘li Badaxshon, muarrix, qozoqlar, qoraqalpoqlar, siyosiy tarqoqlik, yuz urug‘i, Hisor qo‘zg‘oloni, pul islohoti, parvonachi, Kofirxon, qizilboshlar

XVII asrning 50-yillari o‘rtalaridan e‘tiboran Xiva xonligi qo‘shinlarining Buxoro xonligi viloyat va tumanlariga tez-tez bostirib kirishlari va Balx bilan munosabatlarning yomonlashuvi og‘ir oqibatlariga olib kelgan[1]. Xonlikning iqtisodiy hayoti borgan sari izdan chiqib boraverdi. Bunday vaziyatda oldingi davrlarda bo‘lgani kabi davlat xazinasini to‘ldirishning asosiy vositasi bu soliqlar va turli yig‘imlardir. Soliqlarning asosiy qismi esa, oddiy xalq zimmasiga yuklanadi. Bu omillar oddiy xalqning sabr-kosasini to‘ldiradi. 1681-yilda Buxoro xonligida yana bir yirik qo‘zg‘olon sodir bo‘ldi. Bu safar Zarafshon vodiysining Miyonqol mavzesi aholisi yirik yer egalarining zo‘rovonligiga qarshi bosh ko‘taradilar. Miyonqol Buxoro xonligining yirik dehqonchilik markazlaridan biri bo‘lib, Oqdaryo va Qoradaryo oralig‘ida joylashgan[2]. Miyonqolliklar soliqlar va zo‘rovonliklarga chidab tura olmadilar. Qo‘zg‘olon ancha yirik tus olib, Sirdaryoning quyi oqimidan ko‘chib kelgan qoraqalpoqlar va o‘zbeklarning xitoy-qipchoq urug‘i vakillari ham miyonqolliklar bilan hamnafas bo‘ldilar. Qo‘zg‘olonning ommaviy tus olishidan cho‘chigan Subhonqulixon ularga qarshi yirik qo‘shinni yuboradi. Qo‘zg‘olon bostirildi. Lekin, ko‘p o‘tmay Miyonqolliklar yana isyon ko‘tardilar. Qo‘zg‘olonchilar bu safar ancha uyushqoqlik bilan faol harakat qildilar va xonlik ma‘muriyatini og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Lekin, shunday bo‘lsa-da, adib Xoja Samandar Termiziy tomonidan “ikkinchi sohibqiron” deb olqishlangan Buxoro xoni Subhonqulixon qo‘zg‘olonni bostirdi[14]. Subhonqulixon hukmronligining keyingi davrlarida ham qo‘zg‘olonlar bo‘lib turdi. Jumladan,

Mahmudbiy otaliqqa qarshi o‘zbeklarning yirik urug‘laridan bo‘lgan quramalar va tog‘li Badaxshon aholisi isyon ko‘taradi. Lekin, muarrix Muhammad Yusuf Munshiyning bergan ma‘lumotiga ko‘ra, qo‘zg‘olon oddiy xalqning istagi bilan emas balki, yirik o‘zbek qabilalari sardorlarining irodalarini ifoda etgan. Kundan-kunga xon oldida obro‘si oshib borayotgan Mahmudbiy otaliqning faoliyati ayrim amaldorlarga yoqmaydi. Ular xalq qo‘li bilan Mahmudbiy otaliqni sha‘nini toptashga harakat qilishadi[7]. Qo‘zg‘olon ancha shiddatli tus oladi. Balxni boshqarayotgan Mahmudbiy otaliq bundan qo‘rquvga tushib qoladi. Mahmudbiy otaliq shiddatli tus olib borayotgan qo‘zg‘olonni bostirishga ojizlik qildi. Buning sababini esa, Balxga valiahd tayinlanmaganligi bilan izohlaydi va Subhonqulixon hali yosh bo‘lgan nabirasi Muhammad Muqim Sultonni Balxga hokim qilib yuborishni so‘raydi. Lekin, xon Mahmudbiy otaliq iltimosini rad etdi. Bunday talabni aslida isyonni uyushtirgan qabila sardorlari qilayotgan edilar. Ularning ta‘qibidan cho‘chigan Mahmudbiy otaliq xonga bir-necha marotaba shu mazmundagi maktublarni yuborib turdi. Oxir-oqibatda qurama urug‘i amirlari Mahmudbiy otaliq bilan bitim tuzadilar. Ularning o‘zlari Balxga taxt vorisini yuborish to‘g‘risidagi talabnoma bilan Subhonqulixon huzuriga o‘z vakillarini yuborishadi[7]. Bunday harakatlar Mahmudbiy otaliqning Balx boshqaruvini qo‘ldan ketishiga olib keldi. Balxni boshqarish endilikda Solih xoja qo‘liga o‘tdi. Bu orada Qunduzning tog‘li hududi aholisi ham Mahmudbiy otaliqqa qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Otaliq ulardan qochib Badaxshonga ketishga majbur bo‘ldi. Shundan so‘nggina Subhonqulixon qozoqlar,

qoraqalpoqlar va boshqa urug'lar vakillaridan iborat 200 ming o'tliq qo'shinni Balxga yubordi[7]. Xon qo'shinlari Amudaryodan o'tib, Balxga yetib kelishadi. Lekin, Balx aholisi buxoroliklarni shaharga kiritmaslik uchun bor imkonlaridan foydalanib juda qattiq qarshilik qildilar. Solih xoja bu paytda Badaxshonda bo'lgan Mahmudbiy otaliqqa yordam so'rab murojaat qiladi. Shaharni egallash uchun juda qattiq janglar davom etdi. Buxoro qo'shinlari yoshu-qarini ayab o'tirmadilar. Bu janglar yigirma bir kun davom etdi. Balxliklarning matonat bilan qarshilik ko'rsatishlari o'z natijasini bermay qolmadi. Buxoro qo'shini jangda mag'lub bo'ldi va ortga chekindi. Bunday bo'lishiga asosiy sabablardan biri xonning yirik amirlar va din ulamolari tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganligi edi. Balxda esa, nisbatan tinchlik o'rnatildi. Shundan keyin bu yerda Mahmudbiyning mavqei yanada mustahkamlanadi. Shu tariqa Buxoro xonligi valiahdi tomonidan boshqariladigan Balx asta-sekin Buxorodan mustaqil faoliyat yuritish yo'lidan bordi. Xullas, Subhonqulixon davrida Buxoro xonligining Balx bilan ziddiyatda bo'lishi, xivaliklarning tinimsiz hujumlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini izdan chiqardi. Shahar va qishloqlar vayron bo'ldi, talon-taroj qilindi. Sug'orish inshootlari vayron etildi. Xalqning ijtimoiy turmushi yanada qiyinlashdi[12]. Uning davrida yetti yillik soliqni birdaniga yig'ib olishga harakat boshlanadi. Tinimsiz urushlar, soliqlarning haddan tashqari ko'pligi, mahalliy amaldorlarning beboshliklari va tez-tez takrorlanib turgan tabiiy ofatlar vaziyatni yanada murakkablashtirdi. XVIII asr boshlariga kelib Buxoro xonligidagi inqirozli vaziyat yanada kuchaydi. Endilikda ashtarxoniy hukmdorlar yirik o'zbek qabilalari sardorlari va saroy amaldorlari qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib qoladi. Subhonqulixon(1681-1702)dan keyin taxtga Ubaydullaxon II(1702-1711) o'tirdi[12]. Ubaydullaxon II davrida xonlikning turli hududlarida norozilik namoyishlari, qo'zg'olonlar bo'lib turdi. Ubaydullaxon II mavjud siyosiy tarqoqlikni bartaraf etishga harakat qilib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilgan joniylar sulolasining oxirgi vakili bo'ldi[4]. Lekin, u bu niyatlariga erisha olmaydi. Ubaydullaxon II ning yirik zamindorlar, amirlar ayniqsa, xonlikda uzoq davrlardan beri o'z mavqeilariga ega bo'lgan jo'ybor xo'jalari bilan yomon munosabatda bo'lishi vaziyatni og'irlashtirdi[4]. U amalda real hokimiyatga ega bo'lmay yirik amaldorlar qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib qoladi[6]. Ubaydullaxon II hukmronligining ilk yillarida Hisor viloyatida yirik qo'zg'olon sodir bo'ldi. Bu viloyat o'zbeklarning yirik yuz urug'i tomonidan idora qilinardi. Qo'zg'olonga asosiy sabab, Hisorlik yuz qabilasining yetakchisi O'tkan bilan Samarqand o'zbek yuzlari yo'lboshchisi Muhammad Rahimbiy o'rtasidagi dushmanlik munosabatlari edi[13]. Bu dushmanlik ortidan Muhammad Rahimbiyning o'zi buxoro qo'shinlariga bosh bo'lib Hisorga yurish qiladi. Yurish chog'ida buxoroliklar tomonidan vahshiyliklar bilan birga musulmon odatlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni ham qilishdilar. Jumladan, qabrlarni buzib tahqirladilar, uylarga o't qo'ydilar, sug'orish inshootlarini izdan chiqardilar. Bularning hammasi Hisor aholisining sabr-kosasini to'ldirdi. Buxoroliklar hisorliklar va ularga yordamga kelgan qo'shni tumanlardan yig'ilgan aholining juda qattiq qarshiligiga duch keldi va 1703-yilgi yirik Hisor qo'zg'oloni shu tariqa vujudga keldi[1]. Buxoro xonligida ko'tarilgan eng yirik xalq norozilik harakatlaridan biri 1708-yilda sodir bo'ldi. Bu qo'zg'olonga Ubaydullaxon II ning pul islohoti sabab bo'ldi[3]. Tinimsiz davom etgan ichki urushlar, qo'shni davlatlarning tez-tez hujumlari, xonlik saroyida har xil chiqimlarning kundan-kunga ortib borishi va xazinani talon-taroj qilinishi oqibatida davlat xazinasi bo'shab qoldi. Bunday vaziyatda Ubaydullaxon II pul islohoti o'tkazish orqali ahvolni o'nglamoqchi bo'ldi. U 1708-yilda xonlikning moliyaviy masalalar bo'yicha asosiy amaldori Mehtar Shofe va o'zbeklarning saroy qabilasidan bo'lgan davlat xazinachisi Xoja Bolta bilan maslahatlashib pul islohotini o'tkazdi. Bu islohot xonlikda ilgari mavjud bo'lgan tarkibi 35-36 foiz kumushni tashkil etuvchi tangalar o'rniga boshqasini zarb qildirishdan iborat bo'di[13]. Unga ko'ra, endilikda xuddi shu kabi og'irlikdagi tangalar o'rniga tarkibi 9 foizga ya'ni, 4 barobarga kam kumush bo'lgan tangalar zarb qilindi. Bu tangalarning qiymati esa, oldingi tangalar bilan bir xil deb belgilandi[5]. Bu islohot aholining ko'pchilik qatlami tomonidan qabul qilinmadi. Savdogarlar, usta-

hunarmandlar, novvoylar va boshqa kasb egalari o'z mollarini bu qadrsizlangan pulga sotmadilar, ayr boshlamadilar. Buxoroda ko'plab do'konlar yopildi, ustaxonalar o'z faoliyatini to'xtatdi. Natijada, aholining ahvoli juda og'irlashib qoladi. Muarrix Muhammad Amin Buxoriyning ma'lumotiga ko'ra, oddiy va kambag'al aholi hatto yeyishga non topolmay qolgan. Qiyin ahvolga tushib qolgan minglab xalq ommasi hukmdor saroyiga kelib, o'z arzlarini bildirishmoqchi bo'ladi. Biroq ular saroyga kiritilmaydi va shikoyati tinglanmaydi. Shundan so'ng, qo'zg'olonchilar o'zlari ishongan kishiga murojaat qilish orqali niyatlariga erishmoqchi bo'ladilar. Ular o'zlariga devonai Pansadmoniyini rahbar etib saylaydilar va xonning eng ishonchli amaldorlaridan bo'lgan Ma'sum otaliqning uyiga boradilar va undan yordam so'raydi. Ularning shijoati va talabidan qo'rqib ketgan Ma'sum otaliq ularning arzlarini tinglaydi va xonga yetkazib qo'yishini aytadi. Ammo, umidlari puchga chiqqan olomon ark darvozasi tomon yo'l oldilar. Ular baland ovozlarda xon siyosatini la'natladilar va darvozani toshbo'ron qildilar[13]. Biroq, qurolsiz namoyishchilar saroy qo'riqchilari tomonidan haydab yuborildi. Ubaydullaxon II savdogarlarga do'konlarini ochishni va yangi pul bilan savdo qilish haqida qat'iy farmon berdi. Ammo, bu farmon ijrosiz qoldi. Natijada, xon yon berishga majbur bo'ldi. Endilikda yangi kumush tangalar eskisining yarmiga teng qiymatda deb e'lon qilindi[10]. Aslini olganda, bu qo'zg'olon asosan, xonga va noinsol amaldorlarga qarshi qaratilgan edi. 1708-yilgi qo'zg'olon bostirildi. Lekin, qo'zg'olonchilar to'liq bo'lmasada, o'z maqsadlariga erishdilar. Chunki, ular xonni va amaldorlarni qo'rqitib qo'ydi va murosa qilishga majbur etdi. Xon qaytadan pul islohotini o'tkazdi. E.A. Davidovich ta'kidlab o'tganidek, "Qo'zg'olon muvaffaqiyat qozondi: xonlik yon berishga, islohotni o'zgartirishga, yangi kumush tangalarning majburiy qiymatini ikki barobar tushirishga majbur bo'ldi" [3]. Xullas, 1708-yilgi xonlik poytaxtida ko'tarilgan yirik qo'zg'olon tufayli xon va mansabdorlar ularga yon berishga majbur bo'lib, pul islohotining mazmuni o'zgartirilgan bo'lsa-da, xonlikning iqtisodiy ahvoli yaxshilanmadi. Xonlikning turli viloyatlarida norozilik harakatlari keyingi yillarda ham davom etdi. Tarixchi Abdurahmon Tolyening bergan ma'lumotiga ko'ra, 1713-yilda Samarqand shahrida qo'zg'olon ko'tarildi. Samarqand hokimi bo'lgan Farxodbiy parvonachi o'z siyosatida mazlum xalqni ezish yo'lidan bordi. U hatto yirik mansab egalari, harbiy boshliqlarni ham ayab o'tirmadi va qiyin ahvolga solib qo'ydi. Oqibatda, Farxodbiy parvonachiga qarshi turli qatlam vakillaridan iborat harakat yuzaga keldi. U hokimiyatdan mahrum qilindi. Shahar boshqaruvi Muhammad Rahimbiy do'rmon qo'lga topshirildi[6]. Muhammad Rahimbiy ham boshqaruvda qattiqqo'llik bilan siyosat yurgizdi. Uning o'zi asosan, xitoy-qipchoqlar urug'laridan iborat bo'lgan Samarqand viloyatini boshqarishga qiynaldi. Shuning uchun u o'ziga qarindosh kenagas qabilasidan bo'lgan Sulton to'qsobani Shahrizabdan chaqirdi va Samarqand aholisini zulm bilan idora qila boshladi. Oqibatda, shu yili Samarqandda yana xalq qo'zg'olon ko'tardi. Ko'p sonli shahar aholisi oyoqqa turdi. Sulton to'qsoba shahardan haydab chiqarildi[6]. 1718-19-yillarda Buxoro xonligidagi eng yirik viloyatlaridan biri Balxda qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon Balx hokimi bo'lgan Muhammadxonning jabr-zulmiga qarshi sodir bo'ldi. Muhammadxon o'z boyligini ko'paytirish uchun hech narsadan tap tortmaydi. Uning siyosatidan norozi bo'lgan Balx aholisining juda katta qismi qo'zg'olonda ishtirok etdi. G'azablangan aholining harakatidan qo'rquvga tushgan Muhammadxon o'z odamlari bilan Balxni tark etib, Shibir'onga qochishga majbur bo'ldi. U ochko'zligi va to'rovon siyosati uchun xalq tomonidan Kofirxon deb atalgan. Bu qo'zg'olondan so'ng Balxda hokimiyat tepasiga Musoxonning o'g'li Arabxon keladi[6]. Ashtarxoniy davrining so'nggi yillarida ham Buxoro xonligining turli hududlarida xalq norozilik harakatlari sodir bo'lib turdi. Bunga turli omillar sabab bo'ladi. Masalan: XVIII asrning 20-yillarida Buxoro va unga tutash hududlarda kuchli ocharchilik boshlandi. Ocharchilikdan nafaqat kambag'al aholi, balki o'ziga to'q mulkdor tabaqa vakillari ham aziyat chekdi. Bu dahshatli ocharchilik natijasida ko'plab kambag'al aholini vakillari vafot etishdi. Hatto, ota-onalar o'z farzandlarini sotib yuborish hollari kuzatilgan. Bunda ular faqat moddiy

manfaatdorlik uchun emas balki, farzandlari ochdan o'lmaslik va borgan joylarida yashab ketish umidida ham shunday qilishga majbur bo'lganlar. Ochlikdan aziyat chekkan aholi qo'zg'olon ko'tardi. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, endilikda qo'zg'olonchilar xonga tegishli bo'lgan mol-mulkka tajovuz qiladilar. Oqibatda xonga tegishli bo'lgan tuyalar, otlar va yem-xashakning yarmidan ko'pi fuqarolar tomonidan talon-toroj qilindi[9]. Xon bu vaziyatdan chiqib ketishga o'z qo'zg'olonchilarga chiqarishdan ham cho'chib qoldi. Keyingi yillarda Karmana, Miyonqol, Shahrisabz va xonlikning boshqa hududlarida mehnatkash aholining g'alayonlari bo'lib turdi. Shulardan biri, 1745-yilda Miyonqolda ko'tarildi. Bu harakat shu hududda yashovchi xitoy-qipchoqlar tomonidan amalga oshirilib, unga Ibodullabiy boshchilik qildi[8]. Isyonchilar poytaxt tomon harakat boshlashadi. 1745-yil aprel oyi oxirlarida ular Buxoro shahridan 9 km shimoli-sharqda joylashgan Shayx Bahovuddin Naqshbandiy maqbarasiga yetib keladilar. Darg'azab qo'zg'olonchilar Buxoroga hujum qilib, ko'plab aholi vakillarini asirga oladilar va talon-taroj yo'li bilan qo'lga kiritilgan oljalar bilan ortga qaytadilar. Qo'zg'olonchilar Bahovuddin Naqshbandiy maqbarasi joylashgan qabriston buyumlarini talashdan ham tap tortmadilar. Poytaxtda muntazam qo'shinning yo'qligi, borlari esa, son jihatdan kamligi uchun qo'zg'olonni bartaraf etib bo'lmasdi. Qo'zg'olonchilarga yon berish maqsadida buxoroni Abulfayzxon Ibodullabiyni devonbegi lavozimiga tayinlab vaziyatni yumshatmoqchi bo'ldi. Vaziyatga Eron shohi Nodirshoh aralashdi. U Marv shahri hokimi Shohqulixon boshchiligidagi 20 ming askarni Muhammad Rahimiy hamrohligida Buxoroga yubordi. Muhammad Rahimiyga keng vakolatlar berib, Buxoroning siyosiy ahvolini nazorat qilishni va bu haqda ma'lumot berib turishni topshiradi. Shu tariqa eron qizilboshlari

va turkmanlardan iborat qo'shin qo'zg'olonni bostirdi. Qo'zg'olonchilar jazolandi, Ibodullabiy esa, oldirildi. Shu tariqa Miyonqol qo'zg'oloni bostirilgan. Mehnatkash aholining ahvoli esa, og'irligicha qolaverdi. Xonlikdagi siyosiy vaziyat borgan sari botqoqqa botib boraverdi. Oqibatda, Abulfayzxon hukmronligining so'nggi davrida Buxoroda Eron hukmdori Nodirshohning ta'siri kuchaydi va mang'it qavmining mavqeyi oshdi[11].

Xulosa. Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniy sulolasi vakillari mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida chuqur islohotlarni amalga oshira olmadi. Aholining turmush darajasi xonlikni bu suloladan oldin boshqargan Shayboniy davridagidan ham tushib ketgandi. Yuqorida ko'rib chiqdikki, Joniy davrida xonlikning turli hududlarida tinimsiz qo'zg'olonlar davom etib turdi. Hatto, poytaxt Buxoro aholisi ham o'z yashash sharoitidan norozi ekanliklarini bir-necha marotaba isyonlarida ifoda etdi. Ammo, bu harakatlarning aksariyati bostirildi. Qo'zg'olonchilar o'z maqsadlariga erisha olmadilar. Bunday bo'lishiga bir qancha obyektiv sabablar bor albatta. Birinchidan, bu qo'zg'olonlarning deyarli barchasi stixiyali tarzda ko'tarilgan. Natijada, ular osonlik bilan bostirilgan. Ikkinchidan, qo'zg'olonchilarda jangovar qurollarning bo'lmasligi, ularning mag'lubiyatiga olib kelgan. Uchinchidan, bu harakatlardan bir-birlariga dushmanlik qilib kelayotgan yirik qabilalar sardorlari o'z manfaatlarini uchun foydalanganlar. Bundan qo'zg'olon ko'targan aholi vakillari faqat zarar ko'rgan xolos. Shunday bo'lsa-da, bu xalq harakatlari Buxoro xonligida mavjud siyosiy tuzumning zaifligidan dalolat berib, uning inqirozga yuz tutishni tezlashtirdi. Oqibatda, XVIII asrning o'rtalariga kelib iqtisodiy va siyosiy inqiroz uyg'unlashib Joniy sulolasining inqirozini tezlashtirdi. Xonlik siyosiy hayotida yangi sulolaning kelishiga imkon yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений. Ташкент. "ФАН". 1966.
2. Бартолд В.В. К истории орошения Туркестана, СПб, 1914.
3. Давидович Е. А. История монетного дела Средней Азии XVII-XVIII вв., Душанбе 1964
4. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 2. Душанбе, 1989.
5. История народов Узбекистана. Кн 2. Ташкент, 1947.
6. Абдар-рахман Тале'. История Абулфайзхана. Пер. с тадж., пред., прим. и указ. А.А.Семёнова. Ташкент, 1959.
7. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история (Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А. Семёнова), Ташкент, 1956.
8. Мухаммад Вафои Карманаги. Туҳфат-ул-хони. (Муқаддима таҳияи матн, нусхабадал, таълиқот ва феҳристҳои Чамшед Чуразода ва Нурулло Ғиёсов) Хучанд. "Нури маърифат", 2007.
9. Попов А. Сношения России с Хивой и Бухарой при Петре Великом. СПб. -Т. IX. -1853.
10. Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. Toshkent. "San'at Jurnali". 2009.
11. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. Toshkent, "Tafakkur", 2016.
12. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O', Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism Toshkent. "Akademiya", 2000.
13. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-нама. Пер. с тадж. с прим. А.А.Семёнова, Ташкент, 1957.
14. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук(подшоҳлар учун дастур). Форс-тожик тилидан эркин таржима, сўз боши, тадқиқот, хикоялар, изоҳлар муаллифи Жаббор Ғоснов. Тошкент, "ШАРҚ", 2001.



Ravshan DJURAYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

TDSHU professori S.Shadmanova taqrizi asosida

THE STATE OF LIVESTOCK IN THE UZBEK SSR IN THE 60S-70S OF THE 20TH CENTURY

Annotation

Since ancient times, animal husbandry has satisfied the population's daily needs and played an important role in the development of certain branches of crafts. During the Soviet era, livestock farming became one of the main sources of food for the population and raw materials for the light industry. In the 1960s-1970s, the process of obtaining and processing livestock products proceeded differently. In particular, in the 1950s, more attention was paid to this area, and by the 1970s, projects aimed at increasing the production of meat, milk, hides, animal intestines, and other products began to be implemented. The article discusses these matters.

Key words: Soviet power, animal husbandry, World War II, national economy, horse breeding, cattle, pastures, fodder.

СОСТОЯНИЕ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКСКОЙ ССР В 60-70-Е ГОДЫ XX ВЕКА

Аннотация

С древних времен животноводство удовлетворяло потребности населения в товарах повседневного спроса и играло важную роль в развитии некоторых отраслей ремесленничества. В советское время животноводство стало одним из основных источников продовольствия для населения и сырья для легкой промышленности. В 1960-1970 годах процесс получения и переработки продукции животноводства протекал по-разному. В частности, в 1950-х годах этому направлению уделялось больше внимания, а к 1970-м годам начали реализовываться проекты, направленные на увеличение производства мяса, молока, кожи, кишок животных и другой продукции. В статье обсуждаются эти вопросы.

Ключевые слова: Советская власть, животноводство, Вторая мировая война, народное хозяйство, коневодство, скот, пастбища, корм для земли.

XX ASRNING 60-70-YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDA CHORVACHILIK HOLATI

Annotatsiya

Qadimdan chorvachilik aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo‘lgan talabini qondirgan va hunarmandchilikning ayrim tarmoqlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Sovet davrida chorvachilik aholi uchun oziq-ovqat va yengil sanoat uchun xomashyo beradigan asosiy manbalardan biri bo‘lib qolgan. 1960-1970-yillarda chorva mahsulotlarini olish va ularni qayta ishlash jarayoni turlicha kechdi. Jumladan, 1950-yillarda bu yo‘nalishga e‘tibor ko‘proq berila bo‘lib, 1970-yillarga kelib go‘sh, sut, teri, chorva ichaklari hamda boshqa mahsulotlarni ko‘paytirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirila boshladi. Maqolada shular haqida mulohaza qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sovet hokimiyati, chorvachilik, ikkinchi jahon urushi, xalq xo‘jaligi, yilqichilik, qoramollar, yaylovlar, yer ozuqasi.

Kirish. KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti 1966-yil 16-mayda “Ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdan kolxozchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish to‘g‘risida”gi 372-sonli qarori qabul qilingan edi[1]. Ushbu qarorga ko‘ra mamlakatdagi har bir kolxozda kolxozchilarga kafolatlangan mehnat haqini tegishli kategoriyalardagi sovxoz hodimlarining tariff stavkalariga baravar keladigan qilib to‘lash usulini joriy qilishni va ularning ish haqlari yetishtiriladigan mahsulot miqdori va sifatiga bevosita bog‘liq qilib qo‘yilishi belgilangan edi. Ushbu qaror O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1966-yil 28-iyuldagi 393-sonli qarori bilan ma‘qullangan edi. Qarorga muvofiq barcha ishlar ishning murakkabligiga, ma‘suliyatligiga, sermehnat bo‘lishiga qarab sovxozlarda qo‘llaniladigan tariff setkalari razryadlariga taqsimlangan. Ot qo‘shib va qo‘l kuchi bilan bajariladigan hamda mexanizatsiyalashtirilgan ishlarning normalari mutaxassis va kolxozchilarni keng qatnashtirib tartibga solindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bunday tartib chorvachilik sovxozlariga ham nisbatan qo‘llanilishi belgilandi. Jumladan, har 100 ta sovliqdan kamida 95 qo‘zi olib, ularni onasidan ajratguncha omon saqlaganlik uchun shu sondan ortiq omon saqlangan qo‘zilar qiymatining ellik foizigacha bo‘lgan qismi, plandan oshirib olingan qorako‘l teri uchun plandan ortiq olingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha, plandan oshiq qirqib olingan jun uchun oshirib olingan jun qiymatining ellik foizigacha qo‘shimcha oylik yozilishi belgilangan edi. Katta qo‘ylarni 97 foizdan ortiq omon saqlagan cho‘ponlar uchun qo‘ylar qiymatining ellik foizini to‘lab berish majburiyati yuklangan edi. Undan tashqari cho‘ponlar brigadasiga natura bilan qo‘shimcha ravishda quyidagilar berilishi belgilandi. Agar yil boshiga bo‘lgan har 100 sovliqqa onasidan ajratish vaqtigacha 95

tadan 100 boshgacha qo‘zi o‘stirilgan bo‘lsa har o‘ninch qo‘zi va 100 sovliqqa onasidan ajratish vaqtigacha 100 dan ortiq o‘stirilgan har beshinchi qo‘zi, egizaklik biostimulyatori ishlatilgan qo‘y otarlarida esa har 100 sovliqqa 100 tadan ortiq o‘stirilgan har o‘ninch qo‘zi berilgan[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Qorako‘l qo‘ychiligida qo‘zilarni onadan ajratish vaqtiga yuzta sovliqqa qancha ishga yaroqli qo‘zi chiqqanligini hisoblashda terisini olish uchun so‘yilgan qo‘zilar hisobga olinadi, basharti urg‘ochi qo‘zilar o‘stirish to‘g‘risidagi planli topshiriq bajarilgan bo‘lsa, bu qo‘zilar hisobga kirmagan. Yil davomida 97 foizdan ortiq omon saqlangan kata qo‘ylardan va onalaridan ajratilgandan keyingi yosh qo‘ylardan yarmi berilgan. Katta bo‘rdoqi qo‘ylarga hamda onalaridan ajratgandan keyin o‘tlatib semirtiriladigan yosh qo‘ylarga qarovchi cho‘ponlarga, boqib yoki o‘tlatib semirtirish davri badalida to go‘shga topshirguncha plandan ortiq qo‘shilgan vaznining ellik foizigacha qadar natura holda berilgan.

Tahlil va natijalar. Cho‘chqa boqiluvchi sovxozlarda esa quyidagicha qo‘shimcha haq berilishi belgilangan. Rejani oshirib bajarganligi uchun plandan oshirib olingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha berilgan. Shuningdek, asosiy va bir marta bolalatiladigan urg‘ochi cho‘chqalarga ikki oylikkacha bo‘lgan cho‘chqa bolalari bilan birga qarovchi cho‘chqaboqarga-asosiy urg‘ochi cho‘chqalardan onadan ajratishgacha tirik vazni 12 kilogrammdan kam bo‘lmagan va bir marta bolalatiladigan urg‘ochi cho‘chqalardan tirik vazni 10 kilogrammdan kam bo‘lmagan cho‘chqa bolalari olish va o‘stirish planini oshirib bajarganlik uchun yozilgan. Katta-katta turkum bo‘rdoqi cho‘chqalarga qarovchi cho‘chqaboqarga, basharti mexanizatsiyalashtirilgan ustanovkalar ishlatilsa, semirib qo‘shilgan vazn planinini oshirib bajarganlik uchun plandan ortiq

qo'shilgan vaznning xarid narhidagi qiymatidan 20 foizgacha qo'shimcha haq to'lanishi belgilangan edi. Barcha jins va yoshlardagi turkum cho'chqalar boqilayotgan cho'chqa fermalarida qo'shimcha haq plandan oshirib olingan mahsulot, cho'chqa bolalari va semirib qo'shilgan vazn uchun yozilgan. Shuningdek, material pul sarflarini tejaganlik uchun, tejalgan bevosita sarflar qiymatining ellik foizi to'langan.

1966-yil 29-iyulda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va nasl-uruchitish ishlarini yaxshilash choralarini to'g'risida"gi 405-sonli qarori qabul qilingan[2]. KPSS XXIII syezdi tomonidan 1966-1970-yillarda xalq xo'jaligini rivojlantirishning besh yillik plani yuzasidan qabul qilingan direktivalarda chorvachilikni rivojlantirishning muqarrar sur'atlarini vujudga keltirish, jamoat chorvachiligining iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishini yanada yuksaltirish, chorva mollarning mahsuldorligini oshirish, mol ozuqasi bazasini mustahkamlash asosida mol tuyog'ini ko'paytirish yo'li bilan go'sht, sut, tuxum, jun yetishtirishni ko'paytirish zaruriyati belgilangan.

Respublika kolxoz va sovxozlari KPSS Markaziy Komitetining 1965-yil martdagi Plenumida tuzib chiqilgan iqtisodiy tadbirlar sistemasini izchillik bilan amalga oshira borib, o'tgan yilda chorvachilikning mahsuldorligini bir qancha oshirishga va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishga erishdilar, ekinlarning strukturasi birmuncha yaxshiladilar va bedapoyalarning maydonini kengaytirdilar. Keyingi yillar mobaynida ko'p kolxoz va sovxozlarda chorvachilikni ixtisoslashtirish va chorva mollarning sifatini o'zgartirish ishlari olib borildi, mollarni sun'iy qochirish usuli joriy qilinishi natijasida chorva mollarning nasl sifati bir muncha yaxshilandi. Ammo, ko'pgina kolxoz va sovxozlarda chorva mollarni mukammal boqish va to'g'ri asrash ishlari yaxshi tashkil qilinmagan, nasl urchitish ishlariga yetarli darajada e'tibor berilmagan, nasldor qoramollarning salmog'i past, chorva mollarni sun'iy qochirish usuli yetarli darajada va yaxshi ravishda amalga oshirilmagan, podani to'latish uchun yosh molni, ayniqsa buzoqlarni ko'plab o'stirish yaxshi yo'lga qo'yilmagan, zootexnik tadbirlar o'z holiga tashlab qo'yilgan, bu esa, chorva mollarning mahsuldorligi pasayishiga sabab bo'lgan va go'sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning ko'payishi sekinlashgan. Davlat nasl urchitish zavodlari va naslchilik xo'jaliklari o'z ishini yaxshilash borasida muhim rol o'ynagan bo'lsa ham, o'z oldida turgan muhim vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarga ega bo'lmagan. Respublikada qoramol urchitadigan nasl zavodlari va reproduktor-nasl urchitish xo'jaliklarining soni yetarli emas edi. Nasl urchitish xo'jaliklarining ko'pchiligida chorva mollari mukammal boqilmaydi va noqulay binolarga joylashtirilgan, mehnat talab etuvchi jarayonlar yaxshi mexanizatsiyalashtirilmagan, seleksiya ishlarining planlari yo'q. Chorva mollarning istiqbolli nasllari ko'paytirish uchun aniqlanmagan, zavodning o'ziga xos bo'lgan chorva mol tipi vujudga keltirilgan, qorako'lchilikda va sergo'sht, seryog', serjun qo'ychilikda nasl urchitish ishlari o'z holiga tashlab qo'yilgan edi. Ko'p xo'jaliklarda asossiz ravishda turli nasl mollari ko'paytirilgan, bu esa nasl urchitish ishining chalkashib ketishiga sabab bo'lgan va ishning saviyasini pasaytirib yuborgan.

Nasl ishlari va chorva mollarni sun'iy qochirish davlat stansiyalari yillar davomida tashkiliy jihatdan mustahkamlanmagan bo'lib, ular yangi jihoz va uskuna, transport vositalari bilan yaxshi ta'minlanmagan, malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud bo'lib, shu sababdan chorva mollarning sifatini yaxshilash ishlarini amalga oshirishda kolxoz va sovxozlarga yetarli darajada amaliy yordam ko'rsata olmagan. Chorva mollarni sun'iy qochirish texniklari ko'pgina xo'jaliklarda yetarli darajada malakaga ega bo'lmaganlar, ularning qo'nimsizligi, transport bilan ta'minlanish darajasining pastligi muayyan muammolardan biri bo'lgan. Zootexnik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi.

Qorako'lchilik, chorvachilik va veterinariya ilmiy tekshirish institutlari hamda ularning eksperimental bazalari nasl urchitish, chorva mollarni sun'iy qochirish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishda, urg'ochi mollarning qisir qolishiga qarshi kurashishda

kolxoz va sovxozlarga, davlat nasl urchitish stansiyalariga, davlat nasl urchitish xo'jaliklariga yetarli darajada yordam bera olmagan, nasldor chorvachilikning asosiy amaliy masalalarini kam o'rganishgan, nasl tajribasi va nasllarni iqtisodiy jihatdan baholash, qo'chqor, buqa, takalarning nasldorlik sifatini tekshirish ishlarini olib bormagan edi. Bularning hammasiga O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi ministrligi, Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti, viloyat va tuman ijroiya komitetlari chorvachilikdagi nasl urchitish ishlariga yetarli darajada e'tibor bermagan. Qisqa muddat ichida chorva mollarning mahsuldorligini keskin ravishda oshirish va chorva mahsulotining tannaxsini kamaytirish imkonini beradigan bu muhim ishga nopisandlik bilan qarayotgan rahbarlar ko'pchilikni tashkil qilgan.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti yerdan foydalanishni yaxshilash tadbirlarining amalga oshirilishi, paxta va bedani almashlab ekishni joriy qilib, dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish, chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratib berishini inobatga olgan holda, chorva mollarning naslini takomillashtirish, respublikaning hamma xo'jaliklarida nasl urchitish ishini tubdan yaxshilash yo'li bilan kam mahsuldor hayvonlarni yuqori mahsulot beradigan hayvonlar bilan almashtirish, yetishtirilayotgan mahsulotning tannaxsini arzonlashtirish ishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan edi[4].

Yuqoridagi muammolarni manzilli hal qilish maqsadida kolxoz va sovxozlar, davlat naslchilik va urchitish stansiyalari, O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi ministrligi, Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Sovetiga alohida vazifalar yuklatilgan. Sut va sut-go'sht yetishtiruvchi chorva xo'jaliklarida sut sog'ish, sutda yog' va oqsil moddasini ko'paytirish, go'sht yetishtiruvchi tarmoqda chorva mollarning tez o'sib, yetilish qobiliyatini oshirish, ularning go'sht sifatini yaxshilash, sarflangan ozuqadan yuqori darajada naf olish, qorako'lchilikda jaket sort qorako'l terilar yetishtirishni hamma choralarni ko'rib ko'paytirish, sur qorako'l terilarini va sherozi qorako'l terining nodirroq sortlarini yetishtirishni ko'paytirish va sifatlarini yaxshilash, sergo'sht, serjun qo'ychilikda dag'al jun qirqishni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash, yarim mayin junli sergo'sht-serjun qo'y turlarining guruhlarini vujudga keltirish, ularning tez o'sib, yetilish qobiliyatini oshirish, qo'ylarning go'shtdorligini oshirish va go'sht sifatini yaxshilash, cho'chqachilikda urg'ochi cho'chqalarning serpusht va sersut bo'lishini ta'minlash, cho'chqa bolalarining tez o'sib, yetilish qobiliyatini oshirish, boqishning sifatini yaxshilash, sarflangan mol ozuqasidan yuqori darajada naf olish, echkichilikda sovet zotli serjun echkilarning sonini hamma choralarni ko'rgan holda ko'paytirish, echkilarning jun mahsuldorligini oshirish, sanoatbop tivit beradigan echki podalarini vujudga keltirish, parrandachilikda sertuxum tovuqlarni ko'paytirish, nasl sifatini yaxshilash, parrandalarning tez yetilish qobiliyatini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi[5].

Xulosa. Qarorga muvofiq, O'zbekiston SSRda qoramol zotlarini rayonlashtirish amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent viloyatining Kalinin va Yangiyo'l tumanlarida olachipor va shvits zotli, Sirdaryo viloyatining Guliston, Sirdaryo, Kirov, Paxtaorol, Jetisoy, Jizzax, Yangiyer, Forish, Zomin, Ilich tumanlarida bushuev, avliyoota, shvits, olachipor, Farg'ona viloyatining Kirov, Bog'dod, Quva tumanlarida shvits, olachipor, Andijon viloyatining Andijon, Namangan tumanlarida olachipor, shvits, Samarqand viloyatining Ishtixon, Narpay, Samarqand tumanlarida krasnostep, olachipor, Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon tumanlarida krasnostep, olachipor, Qashqadaryo viloyatining Koson, G'uzor, Qamashi, Shahrisabz, Yakkabog', Qarshi va Chiroqchi tumanlarida shvits va krasnostep, Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida shvits, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston ASSRning barcha tumanlarida krasnostep zotli qoramollarni urchitish belgilab berildi[6]. Shuningdek, qoramol zotlarini rayonlashtirishga bog'liq harakatlar natijasida shvits zotli qoramollar urchitiladigan tumanlarda olatog' zotli qoramollar, olachiporga ustuvorlik berilgan hududlarda Estoniya zotli, krasnostep zoti belgilangan joylarda qizil Estoniya, qo'ng'ir Latviya sigirlari, rayonlashtirilmagan hududlarda esa qozoqi oqbo'sh, santagertruda, aberdin-angus, gereford, qolmiq zotli mol turkumlari ham iqlimlashtirilgan. Buning sababi maxsus sergo'sht molar,

buqalarni ko'paytirish orqali davlat buyurtmalarini oshig'i bilan bajarishga intilish edi.

ADABIYOTLAR

1. Кабулов Э. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б.27.
2. Кадырова М. История развития животноводства в Узбекистане (80-е годы). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1993. – С.4.
3. Ўз МА, Р.837-фонд, 41-рўйхат, 544-иш, 156-варақ.
4. Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С.3.
5. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 31-варақ.
6. Ахмедов Н. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за развитие общественного животноводства (1966-1970 гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1973.



UDK: 93/94(55)«XX»

Salimaxon MADYAROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, t.f.n
E-mail: madyarova-75@mail.ru

T.f.d A Xolikulov taqrizi asosida

TURKISTON DAVLAT UNIVERSITETI TARIX-FILOLOGIYA FAKULTETI FAOLIYATIGA DOIR

Аннотация

Maqolada Turkiston Xalq dorilfununi nomi bilan vujudga kelgan O‘rta Osiyodagi dastabki oliy ta‘lim muassasasi - Turkiston Xalq dorilfununining Turkiston davlat universitetiga aylantirilgandan so‘ng, uning tarkibida 1920-1923 yillarda faoliyat olib borgan Tarix-filologiya fakulteti tarixi bilan bog‘liq masalalar xususida so‘z yuritiladi. Mavzuga tegishli arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari tahlili asosida mazkur fakultetning hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetining vujudga kelishining asoslaridan biri bo‘lganligi, O‘zbekiston tarix fanining kelgusi rivojiga qo‘shgan xissasi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Xalq Maorifi nozirligi, Turkiston davlat universiteti, Tarix-filologiya fakulteti, professor-o‘qituvchilar, talabalar, tarixiy bilimlar.

К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИСТОРИКО-ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы, связанные с историей Историко-филологического факультета при Туркестанском государственном университете, существовавшего в 1920-1923 гг., после преобразования первого высшего учебного заведения в Средней Азии – Туркестанского народного университета. На основе анализа архивных документов и материалов периодической печати по данной теме показано, что данный факультет явился одним из основ создания нынешнего Исторического факультета Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, а также его вклад в будущее развитие исторической науки в Узбекистана.

Ключевые слова: Комиссариат Народного Просвещения, Туркестанский государственный университет, Историко-филологический факультет, профессора- преподаватели, студенты, исторические знания.

TO THE ACTIVITIES OF THE HISTORICAL AND PHILOLOGICAL FACULTY OF TURKESTAN STATE UNIVERSITY

Annotation

The article examines issues related to the activities of the Faculty of History and Philology, created at the Turkestan People's University (since 1920, the Turkestan State University) - the first higher education institution in Central Asia. Based on the analysis of archival documents and periodicals on this topic, it is shown that this faculty was one of the foundations for the creation of the current Faculty of History of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, as well as its contribution to the future development of historical science in Uzbekistan.

Key words: Ministry of Public Education, Turkestan State University, Faculty of History and Philology, professors, teachers, students, historical knowledge.

Kirish. Sovet hukumati o‘rnatilganidan so‘ng tarix faniga rahbarlik qiluvchi partiyaviy muassasa va strukturalar o‘zgardi, o‘lkada oliy ta‘limning yangi tizimi vujudga keltirildi, arxiv va muzey ishlari, Rossiya Fanlar akademiyasi qaytadan tashkil etildi, “eski tarix maktab vakillari”ga munosabat o‘zgardi, tarixni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy va o‘quv muassasalarining yangi sovetcha tizimi yaratildi. Mazkur jarayonlar Turkiston ilmiy muhitiga ham ta‘sir etmay qolmadi.

XX asrning 20-yillarda Turkistonda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar borayotgan bir davrda davlat tarmog‘iga tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalari vujudga keltirila boshladi. Ana shunday muassasalardan biri O‘rta Osiyodagi birinchi oliy ta‘lim muassasasi sifatida 1918 yilda o‘z faoliyatini boshlagan Turkiston xalq dorulfununi 1920 yilning 7 sentabrida RSFSR XNK dekreti asosida Turkiston davlat universitetiga aylantirildi. TDUning 20-yillardagi faoliyati butun murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar davriga to‘g‘ri keldi. Mazkur muassasa Markaziy Osiyodagi dastlabki oliy ta‘lim muassasasiga bo‘lib qolmay, bu davrdagi muhim ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi asosiy markazlardan biriga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zR Milliy arxivining 338 fondida universitet tarixi bilan bog‘liq hujjatlar o‘rin olgan. Fond tarkibidagi 35,38, 187, 329-yig‘majildlarda mazkur muassasaning XX asrning 20-yillaridagi faoliyatiga tegishli. Universitet tarkibidagi “Tarix-filologiya” fakulteti ham aynan mana shu davrda vujudga keltirilgan. O‘lkadagi ilmiy jamiyat va muassasalar faoliyatiga doir hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki,

XX asrning 20 yillari ikkinchi yarmiga qadar davlat tomonidan tashkiliy, moliyaviy va muammolar yo‘nalishi jihatdan to‘la tartibga solinmaganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni tadqiq etishda qiyosiy va tizimli tahlil metodidan foydalanildi. Maqolada arxiv fondlari hujjatlari ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlar materiallari qiyosiy tahlil qilindi, shuningdek, manbalar va olingan ma‘lumotlar analitik metod orqali izohlab berildi.

Tahlil va natijalar. Birgina Turkiston davlat universitetining tarkibi va yo‘nalishi 1918-1923 yillari davomida bir necha marta o‘zgartirilgan. 1918 yilning 10 mayiga qadar universitet 5 ta fakultet (“Adabiyot-falsafa”, “Ijtimoiy-iqtisodiy”, “Qishloq xo‘jaligi”, “Tabiiy-matematika”, “Texnika”) faoliyat olib borgan. 1920 yilda “Adabiyot-falsafa” fakulteti “Tarix-filologiya” fakultetiga aylantirilgan. 1920 yilning kuziga kelib, “Tibbiyot”, “Texnika”, “Qishloq xo‘jaligi”, “Fizika-matematika”, “Ijtimoiy-iqtisodiy”, “Ishchi” hamda “Tarix-filologiya” fakultetlari tashkil etilgan[1].

Universitet Kengashining 1920 yilning 8 mart kungi yig‘ilishidagi ma‘lumotga ko‘ra, “Tarix-filologiya” fakultetida 8 ta kafedra mavjud bo‘lgan[2]. Ular qatorida “Musulmon Sharqi tarixi” hamda “Arab filologiyasi”, “Psixologiya”, “Davlat va huquq” kafedralari ham faoliyat olib borgan.

Tarix-filologiya fakulteti ikkita bo‘lim (Tarix va filologiya)ga ega bo‘lib, uning vazifasi 2-daraja maktablari uchun o‘qituvchilar, shuningdek, ijtimoiy, tarixiy, filologiya sohasida mustaqil tadqiqotchilarni tayyorlashdan iborat bo‘lgan.

1920 yilning yoz oyi oxirlari-kuz oylarida Tarix-filologiya fakulteti yig'ilishlarida asosan tashkiliy masalalar muhokama qilingan. Shu yili universitetning "Tarix-filologiya" fakultetining professor, o'qituvchi va assistentlari to'g'risida 8 banddan iborat Nizomi ishlab chiqilgan"[3].

1920 yil 26 iyun kungi universitet Kengashi yig'ilishida A.A. Semyonov tomonidan universitetning "Tarix-filologiya" fakulteti bo'yicha ma'ruzasi tinglangan. Yig'ilishda mazkur fakultetning tarix yo'nalishi bo'yicha "Rus tarixi" kafedrasiga A.V.Pankov hamda "Mahalliy etnografiya" kafedrasiga N.G. Mallitskiylar saylangan. Bundan tashqari, mazkur fakultetga Mumtoz filologiya, Qadimgi Sharq tarixi, madaniyati, arxeologiyasi va O'rta asrlar Sharq tarixi bo'yicha kafedralar tashkil etish uchun akademiklar V.V. Bartold hamda S.A. Jebelev kabi olimlarni taklif etish to'g'risidagi qaror ham tasdiqlangan[4].

20-yillarda "Tarix-filologiya" fakultetida akad. V.Bartold, prof.A.E.Shmidt, A.A.Semenov, M.G.Mallitskiy, M.S.Andreyev, A.V.Popov, L.V.Arasimovich, D.S. Gramenitskiy, N.V. Korenkov, R.F. Kulle, A.V.Pankov, E.A.Rjeshovskiy, A.V.Trapeznikov, L.V.Uspenskiy, I.S.Yanov, V.V.Bush, S.S.Bezobrazov, L.V.Xolostova-Buzobrazova, N.S.Selesh

V.N.Kun, N.S.Selesh va boshqa bir qancha yevropalik tarixchi mutaxassislar va milliy pedagogik va ilmiy xodimlar hamkorlikdagi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu vaqtda universitet fakultetlarini harbiylashtirilishi jarayoni ham amalga oshirilgan. Shu munosabat bilan talabalarga o'tiladigan ma'ruza va amaliyotlar kechda olib borilgan". Kursning umumiy davomiyligi esa 3 yil etib belgilangan.

1920 yilning avgust oyida Vidman kutubxonasi, barcha akademik nashrlar, Arxeologiya komissiyasi, Arxeologiya xavaskorlar jamiyati yodgorliklari va nashrlari, "Qadimgi tarix" jamiyati jamiyatlaridan materiallar yig'ilgan, Tarix-filologiya fakultetining huquqiy holati masalasi muhokama qilingan, shuningdek, 2 ta (Mockva va Toshkentdagi birlashgan guruh fakultet sifatida tan olingan.

1920 yili fakultet talabalarining umumiy soni 248 tani, shundan 1 bosqichda 159, 2-bosqichda 89 tani, o'qituvchilari soni esa 28 tani, shundan 9 tasi professor, 44 tasi o'qituvchi, 2 ta assistent, 3 ta ma'ruzachini tashkil etgan[5].

Shu yilning avgust holatiga boshqa fakultetlar bilan solishtirganda professor-o'qituvchilar tarkibi quyidagi ko'rinishda bo'lgan[6].

Fakultetlar	Professorlar	O'qituvchi (ordinator) lar	Ilmiy xodim (tibbiyotda assistent)	Labor ant	Prepa rator	Jami
Qishloq xo'jaligi	8	21		2	2	
Fizika-matematika	20 (ishlab turgan 8)	39 (ishlab turgan 28)	4 (ishlab turgan 1)		4	67 (ishlab turgan 41)
Tarix-filologiya	7	16				23
Ijtimoiy-iqtisodiy	8 (o'qituvchilar bilan birga)		Assistent 5			17
Tibbiyot	11	9	9	10	4	49

Shu yilning sentabr oyida akad. V.Bartold raisligidagi Tarix-filologiya fakulteti yig'ilishida fakultet dekanini saylash masalasi muhokama qilingan. Ushbu lavozimga 3 kishi: A.E.Shmidt, V.V. Bartold, A.V. Popovlar nomzodi qo'yilgan bo'lib, eng ko'p ovoz to'plagan A.E.Shmidt fakultet dekani lavozimi loyiq topilgan[7]. A.E.Shmidt 1920 yilning o'rtalaridan 1921 yilning o'rtalariga qadar "Tarix-filologiya fakulteti dekani va professori sifatida faoliyat yuritdi.

Universitetning Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti qoshida - A.E.Shmidt[10] rahbarligida Sotsiologiya, tarix, filologiya ilmiy jamiyati faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, "Ijtimoiy-iqtisodiy" va "Tarix-filologiya" fakultetlarining barcha o'qituvchilari mazkur jamiyat a'zolari sifatida kiritilgan. Fakultetning 1920 yil 22 oktabr kungi yig'ilishida mazkur ilmiy jamiyatning nizomini tasdiqlangan. Uning dastlabki yig'ilishlarda jamiyat kengashi Prezidiumi ham saylangan: kengash raisligiga (tashkil etilgan yili Brodskiy) prof. A.E. Shmidt, uning o'rinbosari prof. S.P. Pokrovskiy va kotib prof. V.V. Bush loyiq deb topilgan. Jamiyatning "Tarix" sho'basiga prof. S.S. Bezobrazov, "Falsafa" sho'basiga prof. L.V. Uspenskiy va "Iqtisodiyot" sho'basiga prof. G.N. Cherdanovlar saylangan. 1922 yil 10 martga qadar jamiyat tomonidan 20 ga yaqin yig'ilish o'tkazilgan. Jamiyat a'zolari tomonidan bir qancha ilmiy ishlar nashrga tayyorlangan[11].

Biroq ko'p o'tmay, SSSR Xalq nozirlari kengashining Rossiya universitetlari ijtimoiy fakultetlarini tashkil qilish rejasini to'g'risida "gi qarori"[8]ga muvofiq, Rossiya universitetlarining Ijtimoiy fanlar Shundan so'ng, 1921 yilning 24 mayida bo'lib o'tgan Turkiston XMN xay'ati yig'ilishida universitetning Tarix-filologiya, Fizika-matematika va Temiryazov nomidagi Inpro (Maorif instituti) ham shu yilning 1 iyunidan yopilishi to'g'risida qaror qabul qilingan[9].

Tarix-filologiya fakulteti yangidan tashkil etilgan Pedagogika fakultetining Gumanitar fanlar bo'limiga qo'shib yuborilgan. Bu bo'limga talabalar qabul qilishda mumtoz, sharq va yangi tillarni biluvchi hamda tul yerli aholi vakillaridan rus tilida insho yozishni talab qilingan. A.E.Shmidtning universitet boshqaruv majlisidagi maruzasidan so'ng Tarix va geografiya yo'nalishi qabulidan ushbu "sinovni" olib tashlashga kelishilgan. Bir vaqtning o'zida Turkiston Sharqshunoslik instituti rektori

sifatida ishlagan prof. A.Shmidt 1921 yilning o'rtalaridan o'z hoxshiga ko'ra dekanlik lavozimidan ozod etilib, uning taklifi bilan fakulteti dekani lavozimiga prof. V. Bush saylangan.

Shunday qilib, 20 yillarda universitet tarkibi ijtimoiy yo'nalishdagi fakultetlar tuzilishi bir necha marta o'zgartirilgan: 1921 yilning 28 avgustida Xarbiy fakultet qoshida vujudga keltirilgan Xarbiy-ilmiy jamiyat ham Turkfront inqilobiy xarbiy kengashi tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1921-1922 yillarda mazkur jamiyat yig'ilishlarida harbiy-tarixiy mavzularda qator ilmiy ma'ruzalar tashkillashtirilgan. Biroq ko'p o'tmay, 1922 yilning 9 iyunida Turkfront buyrug'i bilan "Xarbiy" fakultet faoliyati ham tugatilgan. 1922 yilda "Fizika-matematika" bilan birga "Tarix-filologiya" fakultet ham yopilib, ularning o'rniga "Pedagogika" fakulteti tashkil etilgan. 1922/1923 o'quv yilida universitet tarkibi yana isloh qilingan. Tarix-filologiya fakultetining yopilishi bilan "Ijtimoiy-iqtisodiy" fakultet qoshidagi ilmiy jamiyat faoliyati ham deyarli to'xtab qolgan.

Universitetning Ishchi fakultetida ham "Ijtimoiy-iqtisodiyot" bo'limi bo'lib, bu yo'nalishda ikki yillik mashg'ulotlar tashkillashtirilgan. Jumladan, o'qishning 1-yili boshqa fanlar qatori "Zamonaviy Yevropa tarixi (Fransuz revolyutsiyasidan boshlab)", 2-yili «Xo'jalik turmush tarixi», "Rossiyaning XIX-XX asr tarixi", "Sotsial kommunizm tarixi (R.K.P dasturi va taktikasi)" kabi fanlar o'qitilgan[12]. Shuningdek, universitet qoshida alohida talabalar qo'mitasi (studkom), ilmiy to'garaklari ham faoliyat olib borgan. Ijtimoiy fanlar fakulteti qoshida ochilgan falsafa to'garagi ham sezilarli natijalarga erishgan[13].

Shu o'rinda universitetning bu davrdagi faoliyati o'lkadagi mavjud iqtisodiy qiyinchiliklar bilan borganligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar universitet harajatlari uchun deyarli yetishmas, professor-o'qituvchilar uchun beriladigan kam sonli moddiy yordam olish uchun qiyinchiliklar bilan bir qancha rasmiyatchiliklardan o'tib, shunda ham kam sonli eng yuqori toifadagi xodimlarga oziq-ovqat mahsulotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Turkiston olimlari turmushini yaxshilash bilan bog'liq chora- tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda, universitet kutubxona fondini zarur adabiyotlar

bilan to'ldirishda TDuning Tarix-filologiya fakulteti professor-o'qituvchilari alohida tashabbus ko'rsatgan[14].

Bu davrda o'lkada milliy tarixchi mutaxassis kadrlar ko'pchilikni tashkil qilmagan. Respublikada milliy tarixchi kadrlar bilan bog'liq muamolarini hal qilinishida Turkiston davlat universiteti hamda Turkiston Sharqshunoslik institutlari muhim o'rin tutganligini alohida ta'kidlash o'rinli. Jumladan, 1920 yilning oxirida birgina Turkiston davlat universitetining 5 ta fakultetida umumiy hisobda 2671 ta talaba ro'yxatga olingan bo'lsa, shundan 561 tasi "Tarix-filologiya" fakultetiga to'g'ri kelgan. Ushbu 561 ta talabaning 54 tasi erkak, 166 tasi ayollarni tashkil etgan. 1921 yilga kelib fakultet talabalarining umumiy soni 248 ta, shundan 1 bosqichda 159, 2-bosqichda 89 tani tashkil etgan. O'qituvchilari

soni 28 tani, shundan 9 tasi professor, o'qituvchi 44 ta, assistent 2 ta, 3 ta ma'ruzachini tashkil qilgan[15].

Oktabr inqilobiga qadar mavjud tarix ta'limi tizimi, unda faoliyat olib boruvchi ilmiy va pedagogik kadrlar hamda o'quvchi, talabalar ijtimoiy holati sovet hokimiyatining dastlabki yillaridayoq qaytadan ko'rib chiqilgan. 1918 yilning avgust oyidagi RSFSR XKS dekretida oliy o'quv yurtlariga birinchi navbatda so'zsiz proletariat va kambag'al dehqonlar kirishi kerak"[16]jigi ta'kidlandi. Turkistonda ham oliy o'quv muassasalarida ana shunday kadrlar tayyorlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Quyidagi jadval orqali Turkiston davlat universitetining talabalarining ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, 20-yillardan ishchi va dehqonlardan iborat yoshlarning soni ortib borganini ko'rishimiz mumkin:

№	Ijtimoiy kelib chiqishi	1921 й	1922 й	1923 й	%
1	Dehqon	419	642	900	33 %
2	Ishchi	379	553	304	29 %
3	Xizmatchi	95	215	787	29 %
4	Hunarmand	155	328	—	—
5	Mehnat ziyolilari	296	415	111	4 %
6	Boshqalar (harbiy, yer egasi, ruhoniy, ishlab chiqarish korxonalari egalari va h)	740	809	118	4,3 %

Talabalarining partiyaviyligiga kelsak, 1921 yilda partiya a'zo talabalar 7,7 %, partiyasizlar 92,2 % (1920 kishi)ni tashkil qilgan bo'lsa, 1923 yilda yilda partiya a'zo talabalar 33 %, partiyasizlar esa 66,5 % (1808 kishi)ni tashkil qilgan. Ularning milliy tarkibi ham turlicha bo'lgan. Biroq, 1920 yillar boshlarida universitet talabalarining ko'pchiligini ruslar tashkil qilganini ham alohida aytib o'tish kerak.

Hujjatlar orqali keyingi yillarda mahalliy millat vakillarini bir oz ko'paytish mumkin. 1921 yilda ruslar 1.336tani (64 %), o'zbeklar 12 tani tashkil qilgan. 1922 yilda esa ruslar 2074, o'zbeklar 96 kishini, 1923 yilda ruslar 1650, o'zbeklar esa 124 tani tashkil qilgan[17].

1920-1921 o'quv yilida Tarix-filologiya fakultetida "Falsafa", "Sotsiologiya", "Ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar tarixi", "Islomshunoslik", "Eron filologiyasi", "Slavyanshunoslik", "Siyosiy iqtisodiyot", "Xo'jalik turmush tarixi", "Huquq nazariyasi", "Etnografiya", "Umumiy tarix", "Qadimgi sharq tarixi" va "Fransiya inqilobi tarixi", "O'rta asrlar tarixi", "Rossiya tarixi" "Umumiy kurs", "Massonchilik va dekabrizm", "Madaniyat", "Rossiyada yer egaligi tarixi", "Sobiq Volga va Qozon podshohligi xalqlarining tarixi-etnologiyasi", "Rossiyaning qadimgi tarixi", "Rossiya ijtimoiy tarixi", "Tarix metodologiyasi", "Din tarixi" kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borilgan.

Fakultetda shuningdek, "Arab tarixiy yodgorliklari va jo'rofiy adabiyotlarni o'qish", "Islomshunoslik" "Qur'onni o'qish va tushuntirish", "Islomshunoslikka kirish va musulmon huquqi tarixi", "Asl nusxadagi musulmon ilohiyot-fikhiy (huquqiy) yodgorliklarni o'qish", "Rossiyada yer egaligi (Jamiyat turmush tarzi tarixi bilan bog'liq masalalar bilan)", "Yangi tarixning umumiy kursi", "G'arbiy Yevropa tarixi", "Fransuz inqilobi tarixi", Tokvilning "Eski tartiblar va inqilob" hamda "Qadimgi Sharq tarixi" fanlaridan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari olib borilgan. Ushbu o'quv dasturidan ko'rinib turibdiki, fakultetda o'qitilgan tarix yo'nalishidagi darslarning ko'p qismi Rossiya tarixi uchun ajratilgan.

Turkistonlik milliy ziyolilar bu kabi holatlarga alohida e'tibor qaratganini milliy matbuot sahifalarida, Maorif nozirligi Ilmiy kengashi yig'ilishlaridagi Turkiston tarixi, darsliklari yaratish bilan bog'liq masalalarni ko'p bora muhokama qilganligidan[18]. ham ko'rishimiz mumkin.

TDU tarixchi, arxeolog va etnograflari nafaqat tarix fan bilan bog'liq faoliyatga, balki xalq xo'jaligining barcha sohalarida mavjud ilmiy ishlarga ham jalb qilingan. Misol uchun, Turkiston Xalq nozirleri kengashi qoshidagi Turkiston Iqtisodiy Kengash

(TES) faoliyatida ham mahalliy ilmiy kuchlar qatnashishi belgilab qo'yilgan. Iqtisodiy kengashning sharqshunoslik yo'nalishi bo'yicha maslahat ishida, XKSning "Ilmiy maslahat" bo'limi ishida, Turkiston komissarliklarining turli topshiriqlarini bajarishda, TDU professor-o'qituvchilari faol ishtirok etgan. Bu davrda shuningdek, ittifoq markazida bo'lgani kabi Turkistonda ham o'lkashunoslik ishlariga alohida e'tibor qaratilgan[19].

1923 yilning 17 iyulida Rudzutak raisligidagi maxsus yig'ilishda TDU O'rta Osiyo davlat universitetiga aylantirildi. 1924 yilgi O'rta Osiyoni milliy chegaralanishidan so'ng esa tarixiy fanlar O'ODuning Ijtimoiy fanlar fakulteti tarkibida faoliyatini davom ettirgan.

Bu vaqtga kelib universitetga o'qishga hujjat topshirgan talabalar soni juda ko'pchilikni tashkil etgan. Shuning uchun ularning 1371 tasining nomzodini rad qilishga to'g'ri kelgan bo'lsa, shu o'quv yilida "Sharqshunoslik" fakulteti, "Adabiy-badiiy", "Huquq" bo'limining yopilishi va Texnika fakultetining qaytadan tashkil qilinishi munosabati bilan talabalar soni birmuncha kamaygan.

Bu davrda milliy mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, respublikada maxsus o'qituvchilar kurslari ham tashkil etilgan. Bu boradagi chora-tadbirlar orqali o'lka maorifi uchun ko'plab kadrlar tayyorlangan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, TDU tarixchilarining 20-yillardagi faoliyati murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar va g'oyaviy qarama-qarshiliklar davriga to'g'ri keldi. 1920-1923 yillar davomida mazkur muassasa tarkibida faoliyat olib borgan Tarix-filologiya fakulteti jamoasi - milliy ziyolilar va markazdan yuborilgan professor-o'qituvchilarning hamkorlikdagi sa'i-harakatlari bilan nafaqat respublika balki, butun Markaziy Osiyo respublikalari uchun mutaxassis tarixchi pedagog va ilmiy kadrlar yetishtirish ishida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu davrda ijod va fikr erkinligi, sovet hokimiyatining ziyolilarga bo'lgan munosabati, o'qitiladigan tarixiy fanlarga qo'yilgan mafkuraviy va siyosiy talablarning o'ta qat'iyilashmaganligi kuzatiladi. Biroq yil sayin birtomonlama va siyosiyilashgan qarashlar shakllana bordi, ijtimoiy fanlar davlat buyurmasini bajaruvchi, targ'ibot quroli vazifasini o'tay boshladi. Ushbu ta'lim dargohining vujudga kelishi va rivojiga o'ziga xos xissa qo'shgan ziyolilarning ko'pchiligi sovet hokimiyatining qatag'onlik siyosati qurboniga aylandi. Biroq ular tomonidan kelajak avlodlarga qoldirilgan meros, bu dargohdan yetishib chiqqan ilmiy-pedagogik kadrlar O'zbekiston Milliy universiteti tarixida muhim iz qoldirdi.

ADABIYOTLAR

1. O'zR MA. R-34 – fond 1-ro'yxat. 438-yig'ma jild. 29-varaq.
2. O'zR MA. 368-fond. 1-ro'yxat. 39-yig'majild. 15 ob-varaq.
3. O'zR MA. R-368. 1-ro'yxat. 35-yig'majild. 77-varaq.
4. O'zR MA. 368-fond. 1-ro'yxat. 39-yig'majild. 34-varaq.
5. O'zR MA. R.368-fond. 1-ro'yxat. 41-yig'majild. 1 ob-varaq.

6. O'zR MA. R - 368-fond. 1-ro'yxat. 36-yig'majild. 65-varaq.
7. O'zR MA. R.368-fond. 1-ro'yxat. 41-yig'majild. 3-varaq.
8. Постановление СНКов о плане организации факультетов общественных наук Российских университетов. Qarang: O'zR MA. R.368-fond. 1-ro'yxat. 41-yig'majild. 149-varaq.
9. O'zR MA. R.368-fond. 1-ro'yxat. 38-yig'majild. 32-varaq.
10. Беккин, Р. И. А. Э. Шмидт. Биография, научная переписка, избранные труды, библиография : - Москва : Садра, 2018. - 527 с.
11. O'zR MA. R-34-fond. 1-ro'yxt. 1187-yig'ma jild. 114-varaq.
12. O'zR MA. R.34-fond.1-ro'yxat.1186-yig'majild. 26-27-varaqlar.
13. O'zR MA. R – 368-fond. 1-ro'yxat. 189-yig'majild. 95-varaq.
14. O'zR MA. R.34-fond.1-ro'yxat.620-yig'majild. 42-varaq.
15. O'zR MA. R.34-fond.1-ro'yxat.1186-yig'majild. 50-53-varaqlar.
16. Dekret Sovet narodnix komissarov RSFSR «O pravilax priyoma v visshiyе uchebniye zavedeniya ot 2 avgusta 1918 goda».Qarang:Lenin V.I. Polnoye sobr. soch. T.37 // docs / historyrussia.org/nodes / 123
17. O'z MA. R -368-fond. 1-ro'yxat. 189-yig'majild. 30-varaq.
18. Rahimiy Sh. O'zgarishdan ilgani o'lkani tanish // Qizil O'zbekiston. 1924, 29 dekabr.: Sulaymon X. Turkiston tarixi // Turkiston. 1924; "Laziz". Turkiston tarixi kerak // Turkiston. 1924. 10 oktabr va boshq.
19. O'z MA. R - 25-fond. 1-ro'yxat. 675-yig'majild. 9-varaq.



UDK: 394.944:1721:008(584,4)

Nabijon NARZIYEV,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, PhD
E-mail: nabinarziev04@gmail.com

O'zMU professori, t.f.d A.Ashirov taqrizi asosida

FORISH TUMANI FOLKLOR AN'ANAVIYNING ENTOMADANIY XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR*

*ALM-202403110244 sonli "Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg'unligi asosida Forish tumani turistik salohiyatini oshirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Annotation

Ushbu maqolada Jizzax viloyati Forish tumanidagi qishloqlarda saqlanib qolgan folklor an'analar tahliliga doir ma'lumotlar berilgan. Hududning tub aholisi va mingratsiya natijasida ko'chib kelgan etnik guruhlariga xos folklor an'analarning tasnifiga doir mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Folklor, aytim, badik, kinna, burey-burey, avrash, olqish, qarg'ish, emotiv, fatik, konativ, til shevalari, lopar, yalla.

CONSIDERATIONS ON THE ENTO-CULTURAL FEATURES OF THE FOLKLORE TRADITION OF THE FARISH DISTRICT

Annotation

This article provides information on the analysis of folklore traditions preserved in the villages of Forish district of Jizzakh region. Comments on the classification of folklore traditions specific to the indigenous population of the region and the ethnic groups that migrated as a result of migration are given.

Key words: Folklore, saying, badik, kinna, burei-burei, avrash, applaud, curse, emotive, phatic, conative, dialects, lopar, yalla.

СООБРАЖЕНИЯ ОБ ЭНТОКУЛЬТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ФОЛЬКЛОРНОЙ ТРАДИЦИИ ФАРИШСКОГО РАЙОНА

Аннотация

В статье дается информация по анализу фольклорных традиций, сохранившихся в селах Фарийского района Джизакской области. Рассматриваются вопросы классификации фольклорных традиций, характерных для коренного населения региона и этносов, переселившихся в результате миграции.

Ключевые слова: Фольклор, айтим, бадик, кинна, бурей-бурей, авраш, аплодировать, проклинать, эмотивный, фатический, конативный, диалекты, лопар, ялла.

Kirish. Forish tumani o'zining boy tarixi, urf-odat va an'analari, folklor ma'naviy madaniyatida bilan ajralib turadi. Tuman aholisining katta qismini etnik jihatdan o'zbeklar, shuningdek, qozoqlar, tojiklar, va boshqa millat vakillari tashkil etadi. Bu esa tuman etnomadaniy jarayonlarida sirqirra va rang-barang ko'rinishga ega bo'lgan katta ma'naviy madaniyat shakllanganligidan darak beradi. Forish tumani aholisi tabiatan folklor aytilarga boy hududligi bilan ajralib turadi. Shu bois Forishda Jizzax viloyatining boshqa hududlaridan farqli ravishda urf-odat, oilaviy yoki lokal an'naviy marosimlari haligacha ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, kundalik hayotda, xo'jalik munosabatlarida, shuningdek, Jizzax viloyatining mahalliy an'anasiga xos bo'lgan ko'pgina musiqaviy folklor namunalari ham shu hududda keng tarqalganligi bilan ajralib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jizzax folklor madaniyati oilaviy marosim, mavsumiy va mexnat jarayonlari, hamda turli vaziyat va davrlarda kuylanib kelayotgan terma, lopar, yalla, qo'shiq kabi aytilar ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Bizga ma'lumki, o'zbek an'naviy mahalliy musiqalarini 4 ta guruhga bo'lish mumkin: Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro-Samarqand maxalliy musiqa an'analidir[1]. Jizzax viloyati an'naviy musiqa san'atini o'rganishda 1988-1992 yillarda san'atshunos olimlar N.Toshtemirov, O. Ibrohimov, J.Karamatovlar tomonidan ilmiy etnografik ekspeditsiya uyushtirilgan. Natijada magnit lentasiga jami 282 ta xalq aytim (qo'shiq)lari kuylovchilardan yozib olingan. Shulardan 100 tasi nomalar yozuvi vositasida o'tkazilib, ilmiy o'rganilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Jizzax xalq qo'shiqchiligida deyarli butun mamlakat bo'ylab keng yoyilgan turli an'analarning o'ziga xos mikro in'ikosini ko'rish mumkin. Forish folklor an'analari tadqiqi professor U.Qoraboevning ham ilmiy ishlarida keng o'rin

olgan. Ayniqsa, an'naviy Forish milliy o'yinlar, bolalar o'yinlari etnografik tadqiq etilgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Forish tumanida o'tkazilgan dala tadqiqotlari va etnosotsiologik so'rov natijalari, arxiv materiallari tahlili asosida yoritishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. Binobarin, Jizzax viloyati an'naviy aytilar uslubida ma'lum darajada Farg'ona-Toshkent, Samarqand, kamroq foizda Xorazm va Qashqadaryo-Surxandaryo maxalliy uslublarining o'rni bor. Vohaga bu uslublarning faol oqimi XX asrning 2-yarmidan keyin yaqin ko'zga tashlanib, buning asosiy sababi, su'niy migratsiya jarayoniga borib taqaladi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab Jizzax viloyatida yangi yerlarning keng miqyosida o'zlashtirilishi maqsadida respublikamizning turli hududlaridan ko'plab aholining ko'chib kelishi bilan har bir aholi o'z til shevasi, rasm-rusimi, oilaviy marosimi, urf-odati, xullas maxalliy madaniyatiga doir badiiy an'analarni saqlab qolishga harakat qilganlar. Keyinchalik turli mahalliy madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sirlanish kuzatiladi. Bu jarayonlar biz o'rganayotgan Forish tumanida ham kuzatiladi. Forish tumani aholisining an'naviy folklor qo'shiqlari usluban xilma-xil bo'lib, unda bir tomondan tub mahalliy aholining musiqa an'analari, ikkinchi tomondan respublikamizning boshqa viloyatlaridan ko'chib kelgan, jumladan Farg'ona-Toshkent hamda Samarqand musiqa an'analari o'ziga xos tarzda namayon bo'lgan[3].

Jizzax viloyati folklor an'analari va musiqasini voha aholisini ikki guruhga ajratish mumkin. 1) Migratsiya natijasida vujudga kelgan hududlardagi folklor va musiqa an'analari. Bunday tumanlarga Paxtakor, Do'stlik, Arnasoy, Zafarobod, Mirzacho'l tumanlarini misol qilishimiz mumkin. 2) Tub aholiga xos bo'lgan an'naviy musiqa madaniyati. Bunday tumanlarga

Jizzax, G'allaorol, Forish, Zomin, Baxmal, Zarbdor tumanlarini o'z ichiga oladi.

Forish tumanida o'tkazilgan dala etnologik ekspeditsiyalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek, tojik xalqlari an'anaviy musiqasida shakllangan deyarli barcha qo'shiqlar, aytilmar janrlari mavjud. Bularga ayniqsa oilaviy marosim turkumlariga mansub "Yor-yor" va "Kelin salom"lar keng tarqalgan bo'lib, Forish tumaning barcha qishloqlarida o'ziga xos saqlanib qolgan.

Forish tumanini milliy qo'shiqlarini ijro etuvchilar tumanda go'yanda, ashulachi, qo'shiqchi kabi nomlar bilan atalgan. Milliy qo'shiqlarni kuylashda cholg'u asbobi sifatida dutor, qashqar rubobi va doiradan keng foydalanilgan. An'anaviy qo'shiqlarni kuylashda jo'rlikda qarsak chalib kuylash odati ham saqlanib qolgan[4]. Forish tumani o'ziga xos xalq xalq og'zaki ijodida marosim folklori bugungi kungacha o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa aholining turli marosimlarida xalq og'zaki ijodi va folklori ko'zga tashlanadi. Hududdagi xalq og'zaki ijodi va folklor an'analari xususiyatidan kelib bir necha turlara bo'lish mumkin:

Xalq og'zaki ijodi va folklori;

Verbal komponentlarga ega bo'lgan – ya'ni, hatti-harakatlar bilan amalga oshiriladigan (konativ), ma'lumot uzatuvchi vazifalarni bajaruvchi janrlar. Bularga badiklar[5], kinna, burey-burey, avrash, olqish, qarq'ish kabilarni kiritish mumkin

O'zida xaligacha hatti-harakatlar bilan amalga oshiriladigan (konativ), xissiyotlarga boy (emotiv) va ma'lumot uzatishga asoslanuvchi verbal komponentlarga ega folklorlar. Bularga Sust xotin, Choy momo kabi mavsumiy marosim folklorlarini kiritish mumkin.

Hatti-harakatlar bilan amalga oshiriladigan (konativ), xissiyotlarga boy (emotiv), maqsadlarga yo'naltirilgan (fatik) va ma'lumot uzatish vazifalarini bajaruvchi folklorlar bo'lib, ularga yor-yor, kelin-salom, yig'i-yo'qlovlar, motam marosimida ijro etiladigan va'zlar kabi janrlar kiradi.

Marosimning inson hayotida katta o'rin tutishi, barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri uning ijtimoiy vazifasini o'tashi bilan ham bog'liqdir. Marosimning ijtimoiy vazifalari haqida fikr yuritir ekan, I.V. Suxanov asosan uning ikki jihatiga, ya'ni psixologik va estetik funksiyasini ko'rsatib o'tadi. Albatta, bu ikki vazifa mapocplarning jamiyat hayotidagi ulkan ta'sirini belgilovchi omillar sanaladi. Chunki, marosim inson hayotidagi asosiy burilish nuqtalarini, uning tabii hodisalariga bo'lgan munosabatidagi muxim vaziyatlarni jamiyat doirasida kishilari ruhiy jihatdan tayyorlashi lozim bo'lgan. Binobarin, marosimning jamiyat hayotida tutgan o'rni bevosita uning psixologik funksiyasiga ham bog'liq.

Jizzax hududida ham butun mintaqamizda kuzatilgani kabi rang-barang marosim folklori shakllangan. Garchi o'zbek marosim folklorlarining kattagina qismi bevosita xalqning tarixiy taqdiri bilan bog'liq holda hayotdagi ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar, ayniqsa ilmiy texnika ta'sirida asta-sekin yo'qolib borayotgan bo'lsa-da, biroq ularning barchasi qanday g'oyaviy yo'nalishda bo'lganidek qat'iy nazar o'tmishdan xalqning amaliy faoliyatida qo'llanib kelinmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlarida saqlanib qolgan keng folklor an'analarni mavsumiy, marosimiy va xo'jalik faoliyatlariga ko'ra guruhlarga ajratish mumkin. Hududdagi mavsumiy marosimlar folklorini quyidagicha turkumlarga tasnif etish mumkin:

Qishki marosimlar folklori. Bu turkumga "Gap-gashtak", "Yas-yusun" kabilarni kiradi.

Bahorgi marosimlar folklori. Bunga "Shoxmoylar" (qo'sh chiqarish), "Loy tutish", "Sust xotin" kabilarni mansub.

Yozgi marosimlar folklori. Ushbu turkumga "Choy momo" marosimi mansubdir.

Kuzgi marosimlar folklori. Bu guruhga "Oblo baraka" va "Shamol chaqirish" kabi marosimiy folklorlarni kiritish mumkin [6].

Forish tumani qishloqlarida ham qishki mavsumiy marosimlar etnogradual o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shulardan biri "Gap-gashtak" marosimidir. O'tkazilgan dala tadqiqotlari davrida tumaning Uxum, Mojrum, Garasha, Osmonsoy, Uchquloq, Andagen, Egizbuloq, Qoratosh kabi qishloqlarida chanqovuz ijrochiligidagi folklor an'analari ham

saqlanib qolgan. XX asrning 90-yillarida Jizzax viloyatida o'tkazilgan musiqiy folklor an'analarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda musiqiy manzarani yaqqol namayon etish maqsadida viloyatdagi har bir tuman uchun musiqiy kartalar tuzilgan [7]. Mazkur kartalarda Jizzax aholisining etnik tarkibini tashkil etuvchi urug'lar va ularning hudud bo'ylab tarqalish geografiyasi ham ko'rsatib o'tilgan. Bunda urug'lar ba'zan ikki guruhga birlashtirib berilgan. Shunga binoan, qipchoq, xo'ja, to'ra, beklar, saroy, cho'li mo'likanlik urug'lari bir shartli belgida berilgan. Qozi, to'pi, oq axat, shotolib, qurbon hoji, sayyod, mirza cho'qi, besh og'ayni, uyas, qirqlar, odina, buratara, qora mang'it, yuz urug'i kabilarni esa boshqa bir alohida guruh sifatida ko'rsatilgan. Bunday bo'linishda eng avvalo, folklor an'analarning o'zaro yaqinligi, o'xshashligi yoki umuman bir xil mazmunli ekanligi yotadi. Forish tumanining boshqa tumanlar musiqiy an'alaridan filologik yondoshuvda bo'lgani kabi, til shevalari hech qanday muhim yoki hal etuvchi ahamiyat kasb etmaydi.

Bizga ma'lumki folklor an'analari va ijrolar ilk marosimlar hisoblanmish inson dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlarda ko'zga tashlanadi. Forish tumanida bola tug'ilishining 7 kuni ichida bolani beshikka belash marosimi o'tkaziladi. Shu kuni bug'doydan qovurmoch va boursaq (bo'g'irsaq) tayyorlanadi. Marosimda qarindoshlar qo'ni-qo'shnilar ishtirok etishi mumkin. Bolani ilk beshikkv belash vaqtida qishloqning keksa momolari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, turli so'z va ibora aytilardan iborat bo'ladiki, bu aytilmar boshqa ishtirokchilarning ko'magi, qo'llab-quvvatlashi bilan birgalikda olib borilgan.

Boshqa hududlarda bo'lgani kabi bolani beshikka belashda avval beshik yostig'i ostiga quyidagi narsalar qo'yiladi:

Rizqi ulug' bo'lsin, (ikkita kulcha qo'yiladi. Nonning juft bo'lishi, rizqning butunligiga ishoradir)

Yuzy oydek bo'lsin, (Oyna qo'yiladi)

Pichoqdek o'tkir bo'lsin, (pichoq qo'yiladi)

Insu jinslar yaqinlashmasin, (piyoz hamda isiriq qo'yiladi)

Ushbu marosimda dastlab beshikni tagiga yetti qavvat ko'rpacha tashlanadi. Har bir ko'rpachani tashlashda quyidagi aytilmar aytiladi:

Qattiq tovushdan qo'rqma,

Shovqin-surondan qo'rqma,

Qo'yday og'ir bo'l,

Otdek yildam bo'l,

Kuchuk xursa qo'rqma,

Yetti muchaling hamisha sog' bo'lsin,

Katta bo'lganingda boy-badavlat yashagin.

Bunday duo mazmunidagi so'zlar orqali bolani belash jarayoni amalga oshiriladi. Bolani yoshi ulug', nevara va farzandlari ko'p qariya ayol beshikni belash shart bo'lgan. Bu toifadagi ayol oilada bo'lmasa, qarindosh va oilalar amalga oshirgan[1].

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, til shevalari turlicha bo'lgan urug'larning musiqiy an'analari deyarli bir xil bo'lib, aksincha, til shevalari bir xil urug'larning musiqiy an'analari turlicha ekanligi aniqlangan. Vohadagi aholining til shevalari asosan "y"lashgan va "j"lashgan guruhlarga bo'linadi [8]. Forishdagi an'anaviy musiqqa folklorlarini o'rganishda faqat til shevasi orqali namoyon bo'ladi degan tushuncha ilmiy jihatdan xatodir. Boshqa olimlar shu jumladan, xalqning muayyan turmush tarzi, yashash muhiti, dunyoqarashi, xo'jalik tarzi, etnik kelib chiqishi kabilarni ta'sirida yujudga kelganligini ta'kidlashadi [9]. Bu masalada shunday xulosaga kelish mumkinki, tumandagi milliy qo'shiqlarni ijro etishda sheva ko'p ham aks etmasdan, umumlashma, ya'ni, Jizzax viloyatidagi boshqa tumanlar bilan umumiylikda shakllangan.

Forish tumaning folklor an'analari, musiqasi ko'proq jamoaviy marosimlarda ijro etib kelinmoqda. Folklor qo'shiqlarni doira jo'rlikda jamoaviy ijro etilishi bilan boshqa hududlardan farqlanadi. Forish tumaning asosiy aholisi tub aholi hisoblanib, bu esa maxalliy milliy urf-odat va ularda kuylanadigan kuy-qo'shiqlarni an'anaviy tarzda davom etish uchun kafolat bermoqda.

ADABIYOTLAR

1. Тоштемиров Н.Б. Жиззах вилояти ўзбек халқ кўшикчилиги. Т. 1993 йил. Номзодлик диссертациясини олиш учун ёзилган диссертация. 4 б.
2. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. -Т.: "Шарк", 2002. 272 бет.
3. Dala tadqiqotlari Forish tumani Andagin, Kochak qishloqlari. 2024 yil
4. Dala tadqiqotlari. Forish tumani. Mojrurn qishlog'i. 2024y.
5. BADIK — folklor janri. Gul, gulafshon, ko'ch-ko'ch deb ham yuritiladi. Kishi tanasiga qizilcha, eshak-yem va b. toshmalar toshganda, go'yo ularni «daf etish» uchun badikxon (badik aytuvchi) lar tomonidan ijro etilgan. Turkiy xalqlarda uchraydi. Asosan, badikxon b-n go'yo bemor tanasiga joylashib olgan «yovuz ruh» o'rtasidagi keskin kurashni aks ettiradi. Badik izchil shaklga ega bo'ladi, hajmi turlicha, keskin buyruq ohangi b-n ijro etiladi. Badikning tili va badiiy ifodaviy xususiyatlari xalq so'z san'ati hodisasi sifatida o'rganiladi. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/badik-uz/>
6. Саримсоков Б. Ўзбек маросим фольклорлари. Тошкент. Фан. 1986 й. 40 б.
7. Тоштемиров Н.Б. Жиззах вилояти ўзбек халқ кўшикчилиги. Т. 1993 йил. Номзодлик диссертациясини олиш учун ёзилган диссертация. 16-68 бетлар.
8. Ғуломов Х. Ўзбек диалетикасидан материаллар. I жилд, Т.: Фан, 1957. 59-118 бетлар 240 бет
9. Ўзбек фольклори очерклари. Биринчи жилд. Т.: Фан. 1988й. 284 бетлар.



Umrbek SALAYEV,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: salayevumrbek@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilikov taqrizi asosida

JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA ENEOLIT DAVRI TURAR-JOYLARIDA ARXEOLGIK IZLANISHLAR

Аннотация

Maqolada Janubiy Orolbo'yi hududida eneolit davriga oid turar-joylarda olib borilgan arxeologik izlanishlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Salayev Umrbek Kadambayevich tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa Jonbos-4 manzilgohi va atrofidagi hududlarda yashagan aholining moddiy madaniyati, etnik jarayonlari va migratsion siyosatlarini haqida yoritilgan. Tadqiqot natijalari, aholi sonining oshishi va oziq-ovqat muammolari, etnik munosabatlar va geografik muhitga moslashuv jarayonlari kabi jihatlar qamrab olingan.

Kalit so'zlar: Eneolit davri, Janubiy Orolbo'yi, arxeologik izlanishlar, moddiy madaniyat, etnik jarayonlar, migratsion siyosat, geografik muhit.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭНЕОЛИТИЧЕСКИХ ПОСЕЛЕНИЙ В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ

Аннотация

В статье подробно описываются археологические исследования, проведенные в поселениях энеолитического периода в южном регионе Аральского моря. Исследования, проведенные Салаевым Умрбеком Кадамбаевичем, особенно в районе поселения Джонбос-4 и окружающих территориях, освещают материальную культуру, этнические процессы и миграционные политики населения. Результаты исследований охватывают такие аспекты, как рост населения, проблемы с продовольствием, этнические отношения и процессы адаптации к географической среде.

Ключевые слова: Энеолитический период, южный регион Аральского моря, археологические исследования, материальная культура, этнические процессы, миграционная политика, географическая среда.

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH AT ENEOLITHIC SETTLEMENTS IN THE SOUTH ARAL SEA REGION

Annotation

The article provides detailed information about archaeological research conducted in the settlements of the Eneolithic period in the South Aral Sea region. The research carried out by Salayev Umrbek Kadambayevich, especially in the Jonbos-4 site and surrounding areas, sheds light on the material culture, ethnic processes, and migration policies of the population. The research results cover aspects such as population growth, food problems, ethnic relations, and adaptation processes to the geographic environment.

Key words: Eneolithic period, South Aral Sea region, archaeological research, material culture, ethnic processes, migration policy, geographic environment.

Kirish. Maqolada Jonbos-4 manzilgohi urug' jamoalari aholi son miqdori oshganligi munosabati bilan tabiiy iqtisodiy hududlarni o'zlashtirishi natijasida hosil bo'lgan yangi-yangi xo'jalik-madaniy tiplarni vujudga kelishi, ularda kechgan etnik jarayonlarni yoritish nazarga olingan.

Adabiyotlar tahlili. Amudaryo asrlardan asrlar mobaynida suv tarkibidagi mineral moddalarni yotqizilishi natijasida vujudga kelgan tekislik mil.avv. IV-III ming yilliklarda odamzotga xizmat qilishni boshlagan. Xorazm ekspeditsiyasi hodimlari nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Amudaryo o'ng sohili Yonboshqala balandligi atroflari geografik manzarasini hosil qilgan botiqlar Oqchadaryo o'zani faoliyati bilan suv havzalariga aylangan. Bunday jarayonni Tuyamo'yin va Sariqamishbo'yi hududlarida kuzatish mumkin. Tuyamuyin hududida mavjud bo'lgan bir-biriga ulangan maydonlar Amudaryo suv toshqini natijasida sohil etagi ko'tarmasidan oshib tushgan suvlar munosabati bilan suv havzalariga aylangan. Sariqamishbo'yi hududida Qoraqum to'liqsimon ko'chma qum uyumlari oralig'ida botiqlarning suv havzalariga aylanishi Dovdon va Daryoliq irmoqlari suv sathi ko'tarilishi natijasi bilan bog'liq bo'lib, joylashgan axolining kundalik faoliyatini olib borishiga imkon yaratgan.

Mazkur suv havzalari organik dunyoga, sohil etaklari floraga serob bo'lganligi bois engil uchar har xil qushlar makoniga aylangan. Suv manbasi esa chanqoq bo'lgan turli xil jonzotlarga xizmat qilgan.

Janubiy Orolbo'yi hududida eneolit davriga oid manzilgohlar faqat Shimoliy Oqchadaryo havzasida o'rganilgan. Masalan, S.P.Tolstov qayd qilishicha, Sulton Uvays tog'i shimoli-g'arbiy hududida Oqchadaryo irmog'i suv sathi ko'tarilishi natijasida Qizilqum botiqlari suv havzasiga aylangan, sohili

etagiga ulanib ketgan tepalikda joylashgan Qamishli-1,2 manzilgohlarida qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan eneolit davriga oid manbalar olingan[1]. Xorazm ekspeditsiyasi hodimi M.A.Itina Sariqamishbo'yi hududi janubida O'zboy hududida arxeologik dala amaliyoti davrida ro'yxatga olingan aholi turar-joylari Bala-Ishem 8,9, Tog'alok qudug'i atrofida 110, 114 manzilgohlarida qazishma ishlarini olib borib, eneolit davriga mansub moddiy ashyolar olingan Xorazm[2, 3]. ekspeditsiyasi hodimlari nashrlarida Janubiy Oqchadaryo, Tuyamuyin hududida joylashgan Jonbos-4 aholisi vorislari geografik muhitga moslashgan holda, tabiiy manbalardan foydalanib, ajdodlari xo'jalik an'alarini rivojlantirishda kundalik faoliyatlarini to'g'risida ma'lumotlar kuzatilmaydi. Har holda, Jonbos-4 urug' jamoalari vorislari etnik jarayonlarni moslashgan geografik hudud doirasida chiqib, eneolit davrida olib borganligini qayd qilish joiz. E.B.Bijanov tadqiqotlarida neolit davriga oid Oqtoylik, Aydabol, Churik manzilgohlari urug' jamoalari geografik sharoit, tabiiy hadyasidan unumli foydalanib etnik munosabatlarni olib borganligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin.

Xorazm vodiysi geografik yuzasi jihatidan ulanib ketgan, Ustyurt hamma tomoni ochiq, osmono'par tog'lardan holi, daryolar kesib o'tmaydi, tabiat in'omidan foydalangan neolit ovchilar-termachilari eneolit davrida ko'nikkan geografik doirasida kundalik faoliyatlarini olib borgan degan xulosaga kelish mumkin. Bu fikriga asos qilib, E.B.Bijanovning Ustyurt hududida Isatoy-3, Churuk-I, Kaskajal, Oqtumsiq, Kugesem manzilgohlari ovchilar-termachilar eneolit davrida xo'jalik an'alarini davom ettirganligi to'g'risida tadqiqotchi fikr-mulohaza bildirmaydi [4].

Tadqiqotchi mazkur manzilgohlarda istiqomat qilgan aholi soni miqdori oshishi munosabati bilan migratsion siyosat


olib borilishi munosabati yangi manzilgohlarda istiqomat qilgan aholi eneolit davrida etnik munosabatlarga olingan ashyolar asos bo'lib hisoblanadi. Bunga asos qilib, Kaskajal qabristonidan olingan ashyolar neolit davri oxirigacha mansub bo'lgan [5].

Xorazm vodiysi va Ustyurt hududlari tarixiy-madaniy tahlillar nuqtai nazaridan alohida o'rin egallaydi. Arxeologik qazishmalar natijalari ko'rsatishicha, bu yerlarda neolit davridan boshlab, turli madaniy qatlamlar mavjudligi aniqlangan. Eneolit davrida ushbu hududlarda yashagan aholi o'z hayot tarzini atrof-muhitga moslab, turli xil mehnat faoliyatlari bilan shug'ullanishgan. Bunda, asosan, ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik kabi asosiy faoliyat turlari rivojlangan.

Migratsion jarayonlar ushbu hududlarda aholi sonining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayonlar natijasida yangi etnik guruhlar paydo bo'lishi va mavjud etnik tarkibning o'zgarishi kuzatilgan. Arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, Kaskajal qabristonidan topilgan buyumlar bu hududda yashagan aholining madaniy an'analari o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu buyumlar orqali o'sha davr aholisining diniy e'tiqodlari, jamiyatdagi ijtimoiy tuzilish va madaniy aloqalari haqida ma'lumot olish mumkin.

Shuningdek, bu hududlar tarixi davomida turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Eneolit davrida bu yerlarda yashagan aholi o'zlarining kundalik hayotlarini yaxshilash maqsadida turli xil hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishgan. Masalan, sopol idishlar, tosh qurollar va boshqa turdagi buyumlar bu davr aholisining ijodiy qobiliyatini namoyish etadi.

Ustyurt hududi esa geografik jihatdan ochiq bo'lib, bu yerda tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Biroq, bu hududda yashagan aholi o'zlarining mehnat faoliyatlari orqali muhitga moslashib, omon qolish strategiyalarini ishlab chiqarishgan. Jumladan, suv yo'qligi sababli suv tejamkor dehqonchilik usullarini qo'llashgan va chorvachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berishgan.



Natijada, Xorazm vodiysi va Ustyurt hududi tarixi, madaniyati va etnografik tarkibi bo'yicha o'rganiladigan muhim manbalar hisoblanadi. Ushbu hududlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini tushinishda katta ahamiyatga ega. Bu o'rganishlar kelajakda ushbu hududlar tarixini yanada chuqurroq o'rganish va ularga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. holislik, tarixiy-xronologik tahlil, nazariy-qiyosiy talqin, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, geologiya, geografiya va etnografiya fanlari natijalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida eneolit davri aholisini moddiy madaniyati tahlil qilindi.

Natijalar. Maqola mazmunida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida Neolit davri urug' jamoalari vorislarining eneolit davri jamiyatini rivojlantirish sohasida bunyodkorlik faoliyatlari natijalari oydinlashtirildi.

-Tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida neolit davri urug' jamoalari vakillari geografik kenglikda o'zlashtirish siyosatini olib

bormaganlar to'g'risida fikrlar ilgari surildi. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlar nazariy-qiyosiy tahlil etnik jarayonlar eneolit davrida davom etgan.

Eneolit davrida Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida yashagan urug' jamoalari o'zlarining moddiy madaniyatlarini bilan ajralib turishgan. Ushbu davrda ularning madaniyati, yashash tarzlari va ijtimoiy tuzilishlarida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Tadqiqotlar natijasida ularning dehqonchilik bilan shug'ullanishganligi, chorvachilikni rivojlantirishga e'tibor berishganligi va kichik miqyosda hunarmandchilik faoliyatlarini olib borishganligi aniqlangan. Bularning barchasi eneolit davri jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlagan asosiy omillar sifatida qaraladi.

Arxeologik qazilmalar va ilmiy tadqiqotlar yordamida to'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholi o'z hayotini yaxshilash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish maqsadida turli geografik hududlarni o'zlashtirishga harakat qilgan. Bu jarayonlar etnik va madaniy aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qilgan. Eneolit davri jamiyatlari o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish orqali boshqa hududlar bilan hamkorlik qilishgan va bu, o'z navbatida, ularning madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tahlil va natijalar shuningdek, ushbu davrda yashagan aholining ijtimoiy tuzilishi va madaniy an'analari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan, aholi o'zlarining diniy e'tiqodlarini namoyish etish uchun turli rituellar va marosimlarni o'tkazishgan. Bu marosimlar arxeologik qazilmalarda topilgan turli xil rituellarga oid buyumlar orqali o'rganilgan.

Shuningdek, arxeologik ma'lumotlar eneolit davrida yashagan aholi orasida ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'lganligini ham ko'rsatmoqda. Bu tabaqalanish asosan boylik darajasiga, ijtimoiy mavqe va kasb-hunarga qarab belgilangan. Eneolit davrida yashagan aholining kundalik hayotida qo'llanilgan asbob-uskunalar, idish-tovoqlar va boshqa buyumlar ularning ijtimoiy tuzilishi va madaniy darajasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Natijada, Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar eneolit davri jamiyatining rivojlanish tarixini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar kelajakda ushbu hududlarning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Maqola mazmunidan kelib chiqib, quyidagi yakuniy xulosaga kelindi:

Mil.avv. IV-III ming yillikda Jonbos-4 manzilgohi aholisi son miqdori oshishi munosabati bilan vujudga kelgan ziq-ovqat muammolarni bartaraf qilish maqsadida Tuyamuyin, Sariqamish va O'zboy hududlari o'zlashtirilgan, etnik munosabatlar jadal kechgan.

Migratsion siyosati natijasida Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida aholining joylashishi jarayoni keng tus oldi, bu esa yangi xo'jalik-madaniy tiplarning shakllanishiga olib kelgan:

-Migratsion tadbirni olib borilishiga bo'lgan omil Amudaryoning goh toshishi, goh pasayish xarakterlari hamda aholi miqdori turar-joylarda oshib ketishi bo'lgan.

-Ajdodlarimizning neolitdan bronza davrigacha bosib o'tgan tarixiy tajribasini arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida o'rganish;

-Janubiy Orolbo'yi hududida eneolit davrida etnik jarayonlar bir maromda kechmaganlik masalasi shu kungacha ochiq qolmoqda;-Xorazm vohasi tabiiy-iqtisodiy hududlarda eneolit davri aholisi mehnat qurollari texnologiyasida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmaganlik omillarni tadqiqotchilar asarlarida ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil qilish asosida innovatsion g'oyalar asosida o'rganish taklif qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта-М.: Наука, 1962-С.42.
2. Итина М.А. Работы Узбойского отряда в 1957 г //КСИЭ-М.: Наука, 1957. Вып. XXVI-С. 105-113.
3. Итина М.А. Памятники первобытной культуры Верхнего Узбоя //Тр ХАЭЭ-М.:Наука, 1958. Т.2-С. 258-309.
4. Бижанов Е.Б. Каменный век Устюрта //Авто. реф. на соискание уч степени д. и. н. - Нукус, 1996- 41 с.
5. Бижанов Е.Б. Первое неолитическое погребение на Устюрте //СА-М.: Наука, 1985-№ 1-С.250-252.



УДК:314.112(574)

Аброр ТОГАЕВ,
Учитель Национального университета Узбекистана
E-mail: Togayevabror06101998@gmail.com

На основа отзыва к.г.н., Р. Раимжанова

SETTLEMENT OF KAZAKHS IN UZBEKISTAN

Annotation

The article is devoted to the geography of the settlement of Kazakhs in Uzbekistan according to data as of 01.01.2022, broken down by regions with a list of individual rural areas, as well as issues of migration of Kazakhs in Uzbekistan over the past decade. The author uses such methods as demographic, geographical, and modern GIS-technological methods to achieve the maximum full and objective picture. The results of the investigation may be useful for the development of state politics and regional relations and cultural development.

Key words: Urban settlements, rural settlements, kazakh, Uzbekistan, settlement, diaspora, migration, ethnocultural interaction, socio-economic situation.

O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQLARNING JOYLANISHI

Annotatsiya

Maqola 01.01.2022 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, viloyatlar bo'yicha alohida qishloq tumanlari ro'yxati bilan qozoqlarning O'zbekistonda joylashishi geografiasiga, shuningdek, so'nggi o'n yillikdagi qozoqlarning O'zbekistondagi migratsiyasi masalalariga bag'ishlangan. Eng to'liq va obyektiv kartinaga erishish uchun muallif zamonaviy GIS texnologiyalari imkoniyatlari bilan to'ldirilgan demografik, geografik tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Taxlillar natijalari davlat siyosati va mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirish va madaniy rivojlanish uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Shahar punktlari, qishloq aholi punktlari, qozoq, O'zbekiston, aholi punkti, diaspora, migratsiya, etnik-madaniy aloqa, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.

РАССЕЛЕНИЕ КАЗАХОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Статья посвящена географии расселения казахов в Узбекистане по данным на 1.01.2022 г. в разрезе регионов с перечислением отдельных сельских районов, а также вопросам миграции казахов Узбекистана за последнее десятилетие. Для достижения максимально полной и объективной картины автор использует такие методы, как демографический, географический, дополненные возможностями современных ГИС-технологий. Результаты исследования могут быть полезны для разработки государственной политики в области межнациональных отношений и культурного развития.

Ключевые слова: Городские поселения, сельские поселения, казах, Узбекистан, расселение, diaspora, миграция, этнокультурное взаимодействие, социально-экономическое положение.

Введение – Миграция населения и этнокультурное взаимодействие народов Узбекистан остаются важным предметом научного анализа, особенно в контексте формирования полиэтничных обществ[8]. Один из аспектов этой проблемы является расселение казахов на территории современного Узбекистана, которое представляет собой сложный процесс, обусловленный как историческими событиями, так и современными социально-экономическими факторами.

Актуальность данного исследования обусловлена несколькими факторами:

Современное состояние: Исследование современного состояния расселения казахов позволяет оценить их вклад в развитие региона.

Социально-экономические аспекты: расселение казахов в Узбекистане имеет и социально-экономическое измерение, связанное с вопросами занятости, образования, социальной адаптации и интеграции.

Цель исследования: Является изучение расселения казахов в Узбекистане, включая современное состояние, этнокультурные и социально-экономические аспекты.

Задачи исследования: Для достижения необходимо решить нескольких задачи:

Проанализировать современное состояние расселения казахов на территории Узбекистана, выявить основные регионы их проживания.

Исследовать этнокультурное взаимодействие между казахским и узбекским народами в контексте расселения казахов.

Анализ литературы и методы. Для изучения расселения казахов в Узбекистане могут быть использованы различные методы исследования, в том числе:

Демографический анализ: Изучение статистических данных о численности казахов в Узбекистане, их возрастном и половом составе, уровне образования и занятости.

Географический анализ: Нужно изучить карт и географических источников для выявления мест компактного проживания казахов в Узбекистане, а также для анализа факторов, влияющих на их расселение

ГИС-технологии: Картографирование расселения казахов с использованием GIS для визуализации пространственных изменений.

Анализ литературы.

- Советский период: Работы Иванова (1985) [5] и Каримовой (1992) [6] акцентируют роль административного размежевания Средней Азии в 1920-х гг., но игнорируют культурные аспекты.

- Постсоветские миграции: Исследования Нурмагамбетовой (2010) [7]. и Абдуллаева (2015) [8]. анализируют экономические причины миграций казахов в Казахстан, но не рассматривают диаспору в Узбекистане.

Федорко В.Н., Янчук С.Л., Курбанов Ш.Б Современная этническая география Узбекистана [10].

Федорко В.Н. Трансформация этнического состава населения и территориальной структуры основных национальностей Узбекистана в 1989-2019 годах [11].

В этих работах есть данные о расселении казахского этноса в современном Узбекистане.

Результаты – Узбекистан является одной из многонациональных стран мира. Из более чем 130 народов страны преобладающими по численности являются узбеки, за которыми следуют таджики, казахи, русские, каракалпаки, татары, корейцы, киргизы, туркмены, и др.

Таблица.1

Численность казахов в регионах Республики Узбекистан 1 января 2022 года

Регионы	Всего населения, чел	Казахи, чел,	Доля казахов, %
Республика Каракалпакстан	1948500	296527	15,2
Андижанская	3253500	930	0,0
Бухарская	1976800	16537	1,0
Джизакская	1443400	28266	1,9
Кашкадарьинская	3408300	1950	0,1
Навоийская	1033900	37466	3,6
Наманганская	2931100	919	0,0
Самаркандская	4031300	5014	0,1
Сурхандарьинская	2743200	2703	0,1
Сырдарьинская	878600	12897	1,5
Ташкентская	2941500	344122	11,7
Ферганская	3896400	961	0,0
Хорезмская	1924900	10697	0,6
г.Ташкент	2860600	65399	2,3

Источник: Таблица составлена автором с использованием данных Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан.

Данные, в таблице 1, позволяют составить картину миграции казахов в Узбекистане на 1 января 2022 года. Наибольшая концентрация казахов наблюдается в нескольких регионах Узбекистана. Каракалпакстан, с его историческими и культурными связями с казахстанскими регионами, традиционно является зоной компактного проживания казахов.

Высокая численность казахов отмечается в Ташкентской области и самом городе Ташкенте, что Таблица 2.

Районы с большей численностью казахов 1 января 2022 года

Районы	Всего населения, чел	Казахи Чел	%
Тамдынский	15400	8150	52,9
Юкори чирчикский	137100	68118	49,7
Канимехский	36800	13487	36,6
Кунградский	132800	35911	27,2
Бостанлыкский	172800	44122	25,5
Чиназский	139200	27279	19,6
Паркентский	172200	27073	15,7
Учкудукский	38400	6279	16,3
Бектимирский	48900	6638	13,6

Источник: Таблица составлена автором с использованием данных Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан.

На этой таблице 2, мы можем увидеть топ-9 районов: Из них пять районах (Тамдынский, Юкори чирчикский, Канимехский, Бостанлыкский, Чиназский) численность казахов превышает 10 тысяч человек.

Таблица 3.

Миграция казахов в Республики Узбекистан 1 января 2022 года

Годы	численность казахов в общей численность населения РУз чел	Иммиграция Чел	Эмиграция чел
2015	799078	1356	13102
2016	800452	3046	12023
2017	803350	5002	10995
2018	805833	5001	10782
2019	808704	4052	10035
2020	813627	3045	5578
2021	821172	8168	15672
2022	824368	5588	10092

Настоящая время казахи составляют около 830 тысяч, чел по численности занимают 3-е место в Узбекистане. Казахи как и другие народы, проживающие в Узбекистане, расселены по всем внутренним регионам страны.

объясняется привлекательностью крупного мегаполиса с развитой инфраструктурой и возможностями трудоустройства.

Значительное количество казахов проживает в Навоийской, Джизакской и Сырдарьинской областях.

В остальных регионах Узбекистана численность казахов значительно ниже, что указывает на неравномерность их расселения.

Источник: Таблица составлена автором с использованием данных Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан.

Таблица 3, содержит следующие данные за период с 2015 по 2022 годы: Численность казахов в общей численности населения Узбекистана, количество казахов, проживающих в Узбекистане на 1 января соответствующего года

Наблюдается небольшой, но стабильный рост численности казахов в Узбекистане на протяжении всего Таблица 4.

периода. Это может свидетельствовать о положительном естественном приросте населения.

Видно некоторое снижение числа эмигрантов в 2020 году, что, вероятно, связано с пандемией COVID-19 и ограничениями на передвижение.

Миграция казахов в регионах Республики Узбекистан 1 января 2022 года

Регионы	Всего населения казахов чел	Иммиграция Чел	Эмиграция чел
Республика Каракалпакстан	296527	897	4319
Андижанская	930	2	13
Бухарская	16537	11	63
Джизакская	28266	25	60
Кашкадарьинская	1950	11	56
Навоийская	37466	219	386
Наманганская	919	0	18
Самаркандская	5014	12	50
Сурхандарьинская	2703	8	61
Сырдарьинская	12897	19	78
Ташкентская	344122	1869	3753
Ферганская	961	2	33
Хорезмская	10697	37	135
г.Ташкент	65399	2476	1075

Источник: Таблица составлена автором с использованием данных Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан.

Анализ миграционных потоков показывает неоднородную картину. Ташкент и Ташкентская область демонстрируют положительное миграционное сальдо. В то же время, большинство регионов характеризуется отрицательным миграционным сальдо. Наиболее выражен этот тренд в Каракалпакстане, где отрицательное сальдо достигает значительной величины (-3422 человека).

Эти показатели может быть обусловлено рядом факторов, включая экономические трудности, социальные проблемы или поиск лучших условий жизни в других регионах.

Рисунок 1



Источник: Рисунок создан автором с использованием данных Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан.

Обсуждение – В Узбекистане, где проживают казахи, могут наблюдаться проблемы с занятостью, доступом к образованию и медицинскому обслуживанию на казахском языке.

Для решения существующих проблем, нужен, развивать инфраструктуры и обеспечение доступа к качественному образованию и медицинскому обслуживанию на казахском языке, где в местах компактного проживания казахов.

Казахи в Узбекистане активно участвуют в миграционных процессах, что обусловлено историческими, экономическими и социальными факторами[8].

Экономические факторы играют значительную роль. Возможность трудоустройства, уровень заработной платы, наличие жилья – все это влияет на принятие решения о переезде.

Социальные факторы, такие как доступ к образованию, здравоохранению и культурной жизни, также могут быть значимыми. Кроме того, семейные связи и исторически сложившиеся миграционные пути могут играть определенную роль в выборе региона проживания.

Например: Казахстан, привлекает трудовых мигрантов из Узбекистана, включая этнических казахов.

Сезонная работа, в сельском хозяйстве или строительстве — распространённое явление.

Образовательная миграция молодёжь едет в Казахстан для обучения в вузах, часто оставаясь там после окончания учёбы.

Выводы – Миграция казахов в Узбекистане представляет собой сложный и многогранный процесс.

Анализ данных за 2022 год показывает неравномерность расселения казахов по территории страны и значительные различия в миграционном балансе между регионами.

Дальнейшее исследование с использованием более подробных данных позволит получить более полное и точное представление о динамике миграционных потоков казахов в Узбекистане и выявить наиболее важные факторы, влияющие на этот процесс. Это позволит разработать более эффективные стратегии для поддержки и

Практическая значимость работы заключается в разработке рекомендаций для государственных программ Узбекистана и Казахстана, направленных на:

1. Учет особенностей диаспоры при планировании межгосударственных проектов.

2. Интеграцию данных ГИС-анализа в мониторинг этнодемографических процессов.

Однако, в связи со сложностью и многогранностью данного явления, исследование может быть продолжено в следующих направлениях:

Изучение влияния глобализации и интеграционных процессов на жизнь казахской диаспоры в Узбекистане.

Сравнительный анализ положения казахской диаспоры в Узбекистане с другими диаспорами в странах Центральной Азии.

ЛИТЕРАТУРА

1. Sahadeo, J., Zanca, R. (Eds.). (2007). *Everyday Life in Central Asia: Past and Present*. Bloomington: Indiana University Press.
2. Bissenova, A. (2013). "The Kazakhs of Uzbekistan: Identity and Migration." *Central Asian Survey*, 32(4), 453–467.
3. Morrison, A. (2020). "Soviet Nationalities Policy and Its Legacy in Uzbekistan." *Europe-Asia Studies*, 72(8), 1297–1315.
4. Yedigenov, S. (2017). "Ethnic Minorities in Uzbekistan: A Case Study of the Kazakh Community." *Journal of Central Asian Studies*, 24(1), 78–95.
5. Иванов, А. Административное размежевание Средней Азии. Москва: Наука. (1985).
6. Каримова, Л. Этнополитика СССР в Центральной Азии. Ташкент: Узбекистан. (1992).
7. Нурмагамбетова, Г. "Экономические миграции казахов в постсоветский период." *Демоскоп*, (2010). 12(4), 45–60.
8. Абдуллаев, Р. "Миграционные тренды в Центральной Азии." *Вестник Евразии*, (2015). 3(2), 112–130.
9. Садыкова, М. "Этнокультурные практики казахов Узбекистана." *Этнографическое обозрени*, (2018). 5, 89–105.
10. Федорко, В. Н., Янчук, С. Л., Курбанов, Ш. Б. (2020). Современная этническая география Узбекистана. *Географический вестник*, 4, 63-79.
11. Тогаев, А. Р. (2025, January). ОБРАЗ ЖИЗНИ КАЗАХОВ ГОРОДСКОЙ И СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ УЗБЕКИСТАНА. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 4, No. 1, pp. 5-9).
12. Федорко, В. Н. (2020). Трансформация этнического состава населения территориальной структуры основных национальностей Узбекистана в 1989-2019 годах. *Известия Географического общества Узбекистана*, 58, 73-82.
13. Toqayev, A. R. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE KAZAKHS IN THE TASHKENT REGION. *Экономика и социум*, (9 (112)), 297-299.



UDK:94(575.1) (045)

Bobur TOJIYEV,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

E.mail: tojiyevbobur1@gmail.com

TDPU dotsenti, PhD N.Sattorov taqrizi asosida

UILYAM MURKFORTNING BUXORO AMIRLIGIDAGI FAOLIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada 1825-yilda ingliz sayyohi U.Murkfortning ot savdogari qiyofasida Buxoro amirligiga kelishi, uning amir Haydar bilan uchrashishi, Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ma'lumotlari, uning tabiiylik faoliyati haqida bayon etilgan. Uning faoliyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: To‘ra Bahodirxon, Aleksandr Byorns, rishta kasalligi, turkman otlari, Oks, Hindiston, ark, xitoy-qipchoq, Andxo‘y, Buyuk Britaniya.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УИЛЬЯМА МУРКФОРТА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Аннотация

В данной статье рассказывается о прибытии в 1825 году английского путешественника У. Муркфорта в Бухарский эмират под видом торговца лошадьми, его встрече с эмиром Хайдаром, сведениях о социально-политической жизни Бухары, а также о его медицинской деятельности. Его деятельность освещена на основе научных источников.

Ключевые слова: Тура Бахадурхон, Александр Бёрнс, дракункулёз, туркменские лошади, Окс, Индия, арк, китай-кипчак, Андхой, Великобритания.

WILLIAM MURKFORT'S ACTIVITIES IN THE EMIRATE OF BUKHARA

Annotation

This article describes the arrival of the English traveler W. Murkfort in the Emirate of Bukhara in 1825 as a horse trader, his meeting with Emir Haidar, information about the socio-political life of Bukhara, and his medical activities. His activities are covered based on scientific sources.

Key words: Tora Bakhodir Khan, Alexander Burns, Rishta disease, Turkmen horses, Oxus, India, Ark, Chinese-Kipchak, Andkhoy, Great Britain.

Kirish. Hindistonda otlarning tanqisligi sababli, Ost-Indiya kompaniyasi veterinar Uilyam Murkfortni Hindistonga ishga taklif qiladi. 1808-yilda u Kalkuttaga yetib keladi va tez orada Pusada otxona boshlig‘i lavozimida ish boshlaydi. Tabiatdan qiziqqon bo‘lgan U.Murkfort har bir ot savdogaridan Rajputana va Panjobdagi ot bozorlari haqida ma'lumotlar so‘raydi. Ahmad Ali Xon unga “afg‘on savdogarlari 15 yil avval Buxoro bozorlariga ot sotib olish uchun borishlarini va u yerdan zotli fors va turk otlarni olib Hindiston bozorlariga sotishlarini” aytadi. U.Murkfort do‘sti Charlz Metkalf bilan, Buxoroga borib kelgan odamlarni izlashni boshlab yuboradi. Ular Buxoroga savdo bilan qatnagan bir savdogardan Buxorodagi yirik ot bozorlari haqida qimmatli ma'lumotlar olishadi. Xullas Buxoro U.Murkfortning yagona umidiga aylanadi. U.Murkfortning maqsadi faqat nasldor otlar bo‘lmagan. 1807-yilda Fransiya imperatori Napoleon I va Rossiya imperatori Aleksandr I o‘rtasida “Tilzat” shartnomasi imzolandi. Ikki imperator qo‘shinlarini birlashtirib Eron hududi orqali Hindistonga bostirib kirib mustamlakaga aylantirishga kelishib olishadi. Bu holat U.Murkfortni befarq qoldirmaydi. U o‘zining asosiy e‘tiborini nasldor otlardan ham ko‘proq, shimoldan bostirib kelishi mumkin bo‘lgan dushmanga qaratadi. U 1811-yildan 1825-yilgacha (vafotigacha) ot savdogari qiyofasida Bengaliya, Ost-Indiya kompaniyasi hududlari, Himolay tog‘laridan o‘tib, Hindukush orqali Buxoro va Markaziy Osiyo hududlarida bo‘ladi. U o‘zining faoliyati davomida Buyuk Britaniyaning Kalkuttadagi hukumatiga juda qimmatli razvedka ma'lumotlarini junatib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. U.Murkfortning vafotidan keyin, uning hujjatlari va kitoblari Qunduzda qolib ketadi. 1831-1840-yillarda Aleksandr Byorns va uning hamrohlari Afg‘oniston, Qunduz, Qobulga sayohat qilganlarida, uning hujjat va kitoblarining deyarli barchasini qo‘lga kiritadi. Bu haqda Aleksandr Byorns o‘zining “Travels into Bokhara” va “Cabool: Personal Narrative of a Journey to, and Residence in That City, in

the years 1836, 7, and 8.” batafsil to‘xtalib o‘tadi. Unda U.Murkfortning Buxoroga olib kelgan savdo mollari, sotib olgan nasldor otlari, uning o‘limi haqida sirli bo‘lib kelgan voqea hodisalarga ancha oydinlik kiritiladi. Uilyam Murkfortning 6 yillik sayohatiga bag‘ishlangan “Tarvels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the Panjab; in Ladakh and Kashmir; in Peshavar, Kabul, Kunduz and Bokhara” nomli qimmatli asar 1841-yilda H.H.Vilson tomonidan nashr etiladi. XX asrda U.Murkfortning Hindistondan Buxorogacha bo‘lgan sayohatini Garry Alder o‘zining 1985-yilda nashr etilgan “Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioneer Veterinary Surgeon 1767-1825” nomli asrida chuqur tahlil qilib beradi. Bundan tashqari Peter Hopkirk 1990-yilda nashr ettirgan “The Great Game” nomli asrida U.Murkfortni O‘rta Osiyodagi “Katta o‘yin”ning ilk ishtirokchisi deb ataydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqot tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida olib borildi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil usuli qo‘llanib, U.Murkfortning Buxorodagi faoliyati, amir bilan o‘rnatgan aloqalari, ot savdogari qiyofasida josuslik ma'lumotlarini to‘plagani, Buxorga nisbatan strategik qarashlari tahlil qilindi. Shuningdek inglizlarning Buxorodagan manfaatdorligi, U.Murkfortning sayohati sabablari va oqibatlari baholandi. Tadqiqot natijalari inglizlarning Buxorodagi josuslik faoliyati va undan ko‘zlangan maqsadlari, o‘sha davrda Buxoro amirligining to‘tgan strategik ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. U.Murkfort Buxoro Sharifga borishni maqsad qilib yurganida, Charlz Metkalf unga aqilli, topqir musulmon kishisini u yerga sinov tariqasida junatib ko‘rishni maslahat beradi. Charlz Metkalf o‘zining fors tarjimoni va kotibi Mir Izzatullohni U.Murkfortga tavsiya qiladi. U.Murkfort Mir Izzatullohni Buxoro amiriga atalgan xat bilan Buxoroga junatadi. Bu xatda u amirni “Mo‘minlarning qo‘mondoni, musulmonlarning imomi, xalq homiysi, Xudoning

yerdagi soyasi va noibi, uning marhamati abadiy bo'lsin"[1] kabi so'zlar bilan ulug'laydi. Mir Izzatullohning sayohati 20 oy davom etadi. U Afg'oniston orqali Hindistonga qaytib keladi. U.Murkfort ruslardan oldin Buxoroga borish, u yerlarning bozorlarini egallash va bu hududlarni Buyuk Britaniya siyosiy ta'sir doirasiga kiritish kerakligi haqida o'z rahbarlarini ko'p marotaba ogohlantiradi. Uning asosiy maqsadi ruslardan oldin harakat qilish va ularni dog'da qoldirish edi. Xullas strategik maqsadlardan kelib chiqib, Kalkuttadagi rahbarlar tomonidan U.Murkfortga Buxoroi Sharifga sayohat qilishga ruxsat beriladi. Ammo rahbarlar, ruslarning noroziligini keltirib chiqarmaslik uchun, bu sayohatga rasmiy maqom berishmaydi. Mabado shunday bo'lsa undan voz kechilar edi. U.Murkfort Xo'ja Shohniyoz yordamida Qur'onshunos olim Mir Fazl Haq bilan aloqa o'rnatadi. Mir Fazl Haq Buxoro amirining iltimosiga ko'ra Buxoroga ketayotgan edi. U U.Murkfortga amir va boshqa ob'ruli kishilar bilan aloqa o'rnatishda yordam berishi kerak edi. Buning evaziga U.Murkfort Mir Fazl Haqning safar xarajatlarini qoplab beradi. Nihoyat 1819-yilda "U.Murkfort hamrohlari Jorj Trebk va Jorj Gutri, otlarga ma'sul shaxslar hamda kichik gurkha askarlari bilan Oks (Amudaryo) bo'ylari va Buxoroi Sharifga kichik karvon bilan yo'lga chiqadi. Bu karavonda chinni idishlardan tortib to'pponchagacha, pichoqdan tortib paxtagacha bo'lgan mollar bor edi"[2]. Bu mollar rus mollarini raqobatda ortda qoldirish uchun ataylab tanlab olinadi. 1825-yil fevral oyida U.Murkfort va uning jamoasi Oks daryosidan (Amudaryo) kechib o'tib Qarshi shahriga yetib keladi. Ular Qarshi shahrida 4 kun bo'lishadi. Shu vaqt davomida u bozordagi narx-navonlarni kundaligiga qayd qilib boradi. Bundan tashqari u, qovun va saryog'ni qanday saqlash, nam charm etik va qizil junli to'nlarni qanday tozalash hamda simob yordamida boshdagi bitlarni qanday yo'q qilish sirlarini qayd qilib qo'yadi. Shaharga kelgan kunining uchunchi kuni, ular Amir Sayyid Haydarning ikkinchi o'g'li To'ra Bahodirxonning (Amir Nasrulloh) rasmiy qabulida bo'ladilar. To'ra Bahodirxon ularni juda samimiy kutib oladi. Ammo U.Murkfort unda zolimlik hislatlarini ko'radi. Ular 1825-yil 21-fevralda Qarshi shahridan Buxoroi Sharifga qarab yo'l oladilar. 1825-yil 25-fevralda Ular Buxoroi Sharifga yetib keladilar. Ular Xiva savdogarlari uchun mo'ljallangan bo'sh saroyga joylashishadi. Bu saroyning boshqaruvchisi Dalli Bay degan kishi bo'ladi. Ular Buxoroda joylashgach, o'zlarining kelganliklarini Qo'shbegiga ma'lum qiladi. U.Murkfort registon maydonidan o'tib hukumdor saroyiga boradi. U Ladahdaligida Buxoro amiridan olgan do'stona maktubini ham o'zi bilan olib keladi. Usha paytda amir Haydar shahar tashqarisida bo'lganligi uchun uni Qo'shbegi kutib oladi. "Qo'shbegi U.Murkfortga do'stona munosabatda bo'ladi. Qo'shbegi U.Murkfortdan sotish uchun olib kelgan mollaridan 10% boj to'lashi kerakligini ma'lum qiladi"[3]. Keyinchalik bu soliq adolatli tarzda undiriladi. Oradan ikki kun o'tgach amir Haydar Arkka qaytadi va U.Murkfort Arkga yana bir chaqiritiriladi. U.Murkfort va Jorj Trebek ayvonlar, yo'laklar orqali katta qabul zaliga olib boriladi. U.Murkfort amir Haydarni qo'yidagicha ta'riflaydi. "U mayus, shubha bilan qaraydigan, rejasiz, kayfiyati tez o'zgaradigan hukumdor edi. U.Murkfort hatto amirning aqliy jihatdan barqaror emasligiga ham shubhaga boradi"[4]. U.Murkfort va Jorj Trebek Qo'shbegining ko'rsatmasiga binoan, hukumdorning oldiga kirganlarida shilyapalarini yechib, boshlarini egib ta'zim qiladi. Bu uchrashuvni U.Murkfort qo'yidagicha ta'riflaydi. "Amir kichik bir xonada tahminan 4, 5 metr balanda o'tirar edi. U rangsiz keng to'n kiygan, boshiga chetlari oltin bilan bezatilgan oq muslinsalla kiygan edi. U oldidagi katta kitobni tez-tez varaqlar edi. Hukumdor tahminan 48 yoshda edi. Uning rangi biroz zaytun tusida va qoraroq edi. Uning yuz tuzilishi biriz o'zbeklarga xos bo'lib, yuzidagi ajinlari va tez o'zgarib turadigan yuz ifodalari uning faol aql-idrokka ega ekanligini ko'rsatardi. Aytishlaricha undagi mehribonlik va yaxshi fe'l-atvor, ishonchsizlik va mag'rurlik bilan aralashib ketgan edi. U bizdan sog'ligimiz, ismimiz, yurtimiz va kasbimiz haqida so'radi. Ikkalamizga amirdan 18 metr o'zoqlikda turish so'ralgandi. Oradan biroz vaqt o'tib amir bizlardan yaqinroq kelishini so'radi, keyinchalik bizlarga bu muloqat maxsus iltifot, ishonch va sharaf belgisi sifatida tushuntirildi. Suhbat davomida amir bizlarga mol-mulkimizni istagan odamga istagan tarzda sotish va shaharda har

qanday mahsulotni sotib olish erkinligini berdi"[5]. U.Murkfortning kundaligida yozilishicha "U Buxoro amiriga taqdim qilgan sovg'alar ro'yxatini yozib qo'yadi va kundaligining oxiridagi izohga ko'ra "amir uning sovg'alariga javoban, uning savdo mollariga solinadigan bojxona to'lovlaridan ozod qiladi. Bu imtiyoz sovg'alar qiymatidan biroz ko'proq bo'lgan"[6].

Buxorolik ot savdogarlari amirning ro'xsatisiz U.Murkfortga ot sotmaganligi sababli, u yana amirga murojat qilishga tug'ri keladi. Amir shikoyatlarni ko'rib chiqadigan kuni, U.Murkfortni qabul qiladi. U buni qo'yidagicha ta'svirlaydi. "Amir mening maktubimni o'qib chiqdi va meni o'tirishimni buyurdi. Bu yerdan men shikoyatlarning qanday hal qilinishiga guvoh bo'ldim. Shikoyatchilarning da'volari o'rinni bo'lsa, amir ularning xo'jjatlariga barmoq muhrini bosardi. Bu muhriga kotib tez-tez xitoydan keltirilgan maxsus siyoh surtib turardi. Amir rad etilgan shikoyatlarning sabablariga izoh berar va rat e'tilgan shikoyat yirtib tashlanar edi. Har bir ijobiy yoki salbiy qarordan so'ng, marosim tashkilotchisi tomonidan hukumdorning adolatli boshqaruvi abadiy bo'lsin deb turk tilida qisqa duo o'qiladi, qolganlar uning ortidan saqollarini silab qo'yishadi. Butun jarayon rasmiy tarzda davom etdi. Hukumdor menga ot sotib olish uchun muxrlangan ruxsatnoma berdi. Bundan tashqari hukumdor marosim boshlig'iga bundan keyin bizlarning hukumdor qabuliga kirishimizda shlayapamizni yechishimizning shart emasligini, o'ng qo'limizni kukragimizga qo'yib yengil ta'zim qilishimizning o'zi yetarli ekanligi haqida buyruq berdi. Biz joylashgan karvonsaray egasi Dalli Bay narsalarimizga javobgar etib belgilandi. Agar narsalarimizdan biron narsa yo'qolsa uning ko'zlari o'yib olinishi haqida ogohlantirildi"[7]. Bundan tashqari Buxoroda U.Murkfort bilan yaqin aloqada bo'lgan savdogarlarning guvohlik berishicha, "amir uning iste'dodini yuqori baholagan va tez-tez suhbatiga chaqirib turgan. Unga oldin hech bir nasroniyga berilmagan imtiyoz — shaharda otda yurish va arkgacha otdan tushmay borish huquqi berilgan"[8].

Buxoro ot bozorlarining bo'm-bo'shligidan U.Murkfort tushkunlikka tushadi, uning fikricha tinimsiz urushlar bu bozorlarni tanazzulga uchratgan. Shunday bo'lishiga qaramay U.Murkfort yaxshi naslli potlarni topishdan umidini uzmagani edi. Amirning xitoy-qipchoq isyonini bostirish uchun qilgan yurish paradini ko'zatgan U.Murkfort eng yaxshi otlarning ko'pchiligi amir qo'shining tarkibida ekanligiga guvoh bo'ladi. U.Murkfort faqat siyosiy masalalarga emas, o'zini qiziqtirgan ijtimoiy jarayonlarga ham e'tibor qaratadi. U Buxorodagi yer haydash, ekin o'rini-yig'imi, sug'orish va o'g'itlash, vinochilik va uzum yetishtirish, eshak va parranda boqish, sutchilik va ipakchilik, kannabis va meva yetishtirish haqida Londondagi qishloq xo'jaligi kengashi uchun kichik bir kitob yozadi. Buxoroning mashhur oq nonlarining tayyorlanishi, nonvoylarning tandirning issig'iga chidamliligi uni xayratda qoldiradi. U non yopishni sinab ko'rmoqchi bo'lganida qosh va kipriklarini kuydirib oladi. Buxoro shahrida odamlar va hayvonlar orasida keng tarqalgan qurt kasalligi (rishta kasalligi) U.Murkfortning alohida e'tibirini tortadi. U.Murkfort bu kasallik bo'yicha oshkora tadqiqot olib borolmaydi. Ammo suv hovuzlari, idishlari va ariqlar kasallikning sababchisi ekanligiga U.Murkfortning ishonchi komil edi. Shaharning toza ko'chalari va otxonalari bilan badbo'y hidli va sanitariya talablariga javob bermaydigan suv ta'minoti o'rtasidagi keskin farq uni hayratda qoldiradi. Qo'shbegi U.Murkfortning gigiyenik maslahatlariga e'tibor bermaydi. U Buxoroda "qurt o'ldiruvchi" nomi bilan tanilgan Mirzo Shams ismli sartarosh-jarrohning yonida ko'p vaqtni o'tkazadi. U.Murkfort bemorlarning tanasidan qurtlarning chiqarilish jarayonini kuzatadi va bu usullarni yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalarini beradi. Hatto bemorlarning tanasidan 1 metrgacha bo'lgan qurtlar chiqadi. U.Murkfort Buxoroda 3 ta rus qulini bitta yaxshi ot bahosidan ham arzoniga sotib oladi. Uning maqsadi ularni Hindistonga olib borib ozod qilish edi. Ammo amir bu qullarni U.Murkfortdan qul bozorida qayta sotishini talab qiladi. U.Murkfort sotib olmoqchi bo'lgan yaxshi otlarning ko'pchiligi, amir qo'shini bilan ketgan edi. U.Murkfort ularni iyul oyi boshigacha kutadi. Chunki Hindistonga qaytish chorolari ko'rilmasa, qish paytida Hindiko'sh tog'larida qolib ketish ehtimoli bor edi. U.Murkfort Qo'shbegidan ketishga ruxsat so'raganidan bir necha kun o'tib, amir uni harbiy lageriga

chaqirtirganligi haqida xabar keladi. Amir U.Murkfortni yashil ipak chodirida qabul qiladi. Amir U.Murkfort olib kelgan sovg'alardan mamnun bo'ladi va Hindistonga qaytish yo'lida joylashgan ba'zi qabila boshliqlariga maktub yozishga vada beradi. Bular U.Murkfortni ruhlantiradi va otlar masalasida yana bir bor amirga murojat qiladi. U shunday dedi. "Men amirga Buxoroda nasldor otlar borligini eshitganimni, lekin shu paytgacha oz sonli otlarga ega bo'lganligimni bildirdim. Agar amir ro'xsat bersa qo'shin lagerida zotli otlardan sotib olishga tayyor ekanligimni ma'lum qildim. Amir "sotib ol", "sotib ol" deb qisqa javob qildi. Men yurtimda hukumdorning mehmondo'stligi va ehtiromini ulug'lash burchim ekanligini amirga bildirdim"[9]. Bu uchrashuvdan keyin u yaralangan askarlarni davolash uchun chaqiriladi. U.Murkfortni fikricha amir uni tibbiy mahorat uchun chaqirgan edi. Ammo amir bilan ikkinchi uchrashuvda bu chaqiruvning asosiy sababi aniq bo'ladi. Uning oldida hayratlanarli darajada chiroyli turkman oti namoyish etiladi. Ushbu ot sotilishi yoki sovg'a qilinishi haqida unga ishora beriladi. Amir undan dushmani qamalga olishni boshqarishini so'rganida, U.Murkfort bizlar karvon qaroqchilariga qarshi kurasha olamiz, qamal urushi yoki muntazam janglarga qatnasha olmaymiz deb javob beradi. Amir Haydar U.Murkfortning josus yoki josus emasligini yuqoridagi ikkita yo'l bilan sinab ko'rgan bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari inglizlarning jang taktikasiga guvoh bo'lmoqchi bo'lgan, yoki ularning ot sotib olishlarini xohlamagan. Nima bo'lganda ham Amir Haydar U.Murkfortdan rad javobini oladi. U.Murkfort shunday yozadi "suhbat boshida amirning chehrasi kulib turar edi. Ammo so'zlarimni eshitganidan so'ng yuzlarida g'amginlik paydo bo'ldi. Men ta'sirimni yo'qotganimni syezdim. Biroz sukutdan so'ng amirning ishorasi bilan bizni chiqarib yuborishdi"[10]. U.Murkfort ertasi kuni bemorlar kurigidan keyin ot izlashni boshlab yuboradi. Ammo U.Murkfort chodiriga qaytganida amirdan "yangi xaridlarni tuxtat va Buxoroga qayt" degan shoshilinch xabar keladi. U amirning chodiriga qarab yo'l oladi ammo amir uni qabul qilmaydi. Ertasi kuni tongda u amir bilan uchrashishga muvaffaq bo'ladi. U amirdan "qo'shindagi barcha otlar xitoy-qipchoq isyonini bostirish uchun kerak" degan javob

oladi. Unga vada qilingan ot o'rmiga oddiy bir libos tortiq qilinadi. U.Murkfort uchun Hindistonga qaytishdan boshqa chora qolmaydi. U.Murkfortning yagona umidi otlarni Amudaryoning janubidan izlash edi. U Buxoroga qaytganida Jorj Trebek Hindistonga qaytish uchun hamma narsalarni tayyorlab qo'yg'an edi. U.Murkfortdan qolgan ba'zi bir xo'jjatlar "u Buxoroni tark etishida, savdo mollarining katta qismini sotganligini ko'rsatadi"[11]. Bu esa uning yuklari haqidagi haddan tashqari mulbog'ali gap-so'zlarga chek qo'yadi. Tong otishi bilan Jorj Trebek barcha otlar bilan yo'lga chiqadi. U.Murkfort esa yuklar va tuyalar bilan keyinroq yo'lga chiqadi. Shom paytida ular shahardan tashqariga yetib kelishadi. Kechki ovqat osh (palov) tayyorlash uchun U.Murkfort shaharga odam junatadi. Palov juda mazali chiqqanidan, u bu taomni pishirish usulini kundaligiga alohida yozib qo'yadi. Karvon tarkibida 60 ta ot, 60 ta odam va kamayib qolgan yuklarni ortish uchun ijaraga olingan tuyalar bor edi. U Hindistonga qaytish oldidan sog'ligida muammolar paydo bo'la boshlaydi. Ular 4 kun yo'l yurib Qarshi shahriga yetib kelishadi. To'ra Bahodir (Amir Nasrullo) ularni yaxshi kutib olmaydi. Qarshida U.Murkfortning bir nechta qimmatbaho shoyi matolari va eng yaxshi otlaridan biri olib qo'yiladi[12]. U 1825-yilning 27-avgust kuni kasallikdan "Andxo'y" shahrida (hozirgi Afg'onistonning shimolidagi tuman) vafot etadi. U.Murkfortning 6 yillik sayohati shu yerda tugaydi.

Xulosa va takliflar. U.Murkfort Buxoroni tark etishidan oldin josuslik tarmog'ini yo'lga qo'yadi. U maxfiy josuslarini Buxoroga joylashtiradi. U Hindistonning shimolidan Buxoro amirligigacha bo'lgan hududlarda inglizlarning savdo-sotig' siyosatini joriy qilish va bu yo'l orqali mahalliy hukumdorlarni o'zlarining siyosiy ta'siriga olish haqida o'z rahbarlariga bir nechta marotaba xabar beradi. Uning fikricha bu yo'l ruslarning Hindistonga bo'lgan tajovuzini qaytarishda samarali yo'l edi. Buxoro bilan Amudaryoda kemalar qatnovi orqali savdo-sotiq qilishning strategik ahamiyatini aniqlaydi. U.Murkfort Buxoro Sharifdagi yarim yillik faoliyati davomida, bu davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar qoldiradi. Bu ma'lumotlar Vatanimiz tarixini o'zganishda qimmatli manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 124 p.
2. Peter Hopkirk "The Great Game", - London. 1990. 92-bet.
3. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 347 p.
4. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 347 p.
5. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 347 p.
6. Cabool: Personal Narrative of a Journey to, and Residence in That City, in the years 1836, 7, and 8, by the late Lieut.-Col. Sir Alexander Burnes, C.B., &c., of the India Company's Service. Second edition. London, 1843. 195,196-pages
7. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 348 p.
8. Cabool: Personal Narrative of a Journey to, and Residence in That City, in the years 1836, 7, and 8, by the late Lieut.-Col. Sir Alexander Burnes, C.B., &c., of the India Company's Service. Second edition. London, 1843. 196 p.
9. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 352 p.
10. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 353 p.
11. Cabool: Personal Narrative of a Journey to, and Residence in That City, in the years 1836, 7, and 8, by the late Lieut.-Col. Sir Alexander Burnes, C.B., &c., of the India Company's Service. Second edition. London, 1843. 195 p.
12. Beyond Bokhara The Life of William Moorcroft Asian Explorer and Pioner Veterinary Surgeon 1767-1825. By Garry Alder. Second edition, Delhi-2012. 355 p.
13. Tarvels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the Panjab; in Ladakh and Kashmir; in Peshavar, Kabul, Kunduz and Bokhara. By Mr. William Moorcroft and Mr. George Trebeck from 1819 to 1825, by Horace Hayman Wilson. London, 1841.



УДК:691.533

Зилола ТУРАБОЕВА,
Старший преподаватель университета Ренессанс таълим
E-mail: ziloilaturaboyeva84@gmail.com

На основе отзыва PhD Р.Носирова

НАУЧНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РЕСТАВРАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА САМАРКАНДА)

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические знания, реализуемые при сохранении и защите исторических памятников, утрачиваемых в результате современных изменений окружающей среды, состояния сохранности в советское время, комплексной реконструкции, а также научная деятельность ученых по методологии охраны исторических памятников. Автор проводит сравнительный анализ работ по музеефикации на примере исторических памятников Самарканда. В исследовательской работе также рассматриваются основные аспекты изучения исторических памятников и определяются его место и роль в современной практике.

Ключевые слова: Комплекс, реставрация, классификация, микрорайон, реабилитация, наследие, памятник, музеефикация, сохранение, реконструкция, ЮНЕСКО, БМТ, ПРООН.

O'ZBEKISTONDA TARIXIY OBIDALARNI RESTAVRATSIYA QILISHDA ILMIY IZLANISHLAR (SAMARQAND SHAHRI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada tapixiy yodgorliklarni atrof-muhitning zamonaviy o'zgarishi natijasida yo'qotilib borayotgan yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilishda amalga oshirilgan nazariy bilimlar, sovet davrida saqlanish ahvoli, kompleks pekonstruksiya qilish va olimlarning tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish metodologiyasi bo'yicha ilmiy faoliyati ko'rib chiqilgan. Muallif Samarqanddagi tarixiy yodgorliklar misolida muzeylashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar qiyosiy tahlilini keltiradi. Tadqiqot ishi, shuningdek, tarixiy yodgorliklarni o'rganishning asosiy jihatlarini ko'rib chiqadi va uning zamonaviy amaliyotdagi o'rni va rolini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Kompleks, tiklash, mahalla, rehabilitatsiya, klassifikatsiya, meros, yodgorlik, muzeylashtirish, saqlash, rekonstruksiya, YUNESKO, BMT, PROON.

SCIENTIFIC RESEARCH ON THE RESTORATION OF HISTORICAL MONUMENTS IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF THE CITY OF SAMARKAND)

Annotation

The author provides a comparative analysis of the museumization works on the example of historical monuments in Samarkand. The research work also examines the main aspects of the study of historical monuments and defines its place and role in modern practice. In this article, the theoretical knowledge implemented in the preservation and protection of historical monuments, which are being lost as a result of modern changes in the environment, the state of preservation in the Soviet era, complex reconstruction, and the scientific activity of scientists on the methodology of historical monument protection are considered.

Key words: Complex, restoration, klassifikatsiya, neighborhood, heritage, monument, museumization, conservation, reconstruction, reabilitatsiya, UNESCO, BMT, PROON.

Введение. Стремление сохранять ценные комплексы исторической застройки проявилось сравнительно недавно. Современная реставрация, которая зародилась в XIX в., очень долго касалась в основном отдельных архитектурных объектов. Стало понятно, как много может утратить ценный архитектурный памятник в результате современного изменения окружающей среды, и что хорошо сохранившиеся исторические комплексы зданий заслуживают охраны не в меньшей степени, чем изолированные архитектурные объекты высшего класса. В связи с такой эволюцией взглядов в различных странах большие районы городов или даже целые города были признаны памятниками старины. Наконец, должным образом была оценена необходимость охраны наряду с комплексами исторических зданий окружающего их ландшафта, составной частью которого являются как деревья, так и водоемы и холмы.

Обращение Президента Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёева к Олий мажлису: “На сегодняшний день одной из сфер, приносящих высокий доход нашей национальной эканомике, является туризм. Узбекистан является страной, которая имеет широкие возможности для туризма. В нашей стране имеется более 7300 объектов культурного наследия большинство из них внесено в список ЮНЕСКО [1].

В таких крупных городах, как Самарканд, Бухара, Хива, Термез, Карши были реконструированы исторические памятники и места паломничества и превращены в восхитительные туристические объекты которые оставляют массу незабываемых впечатлений у граждан Узбекистана и всего мира.

Еще одним важным направлением является использование туристического потенциала Самарканда. Общеизвестно, что в настоящее время Самарканд является одним из признанных туристических центров не только в нашей стране, но и во всем мире[2].

Обзор литературы. Разработана классификация памятников архитектуры Узбекистана для их широкого приспособления к современным целям [8] реализованы проекты по использованию в сфере туризма архитектурных памятников исторических городов Бухары, Хивы, Самарканда и Коканда. Предполагается, что первичными и формообразующими будут социальная сущность зданий, градостроительные условия, объемно-планировочная структура здания, его художественный облик. В частности, выявлена необходимость в специализированных строительных подразделениях по сохранению, комплексной реконструкции и надзору, методическому руководству и координации исторических центров Самарканда. Наряду с реставрацией исторических памятников перед

градостроительным комитетом поставлена задача учитывать их при реконструкции исторических улиц, сохраняя не только памятники, но и весь исторический город.

Методология исследования. В данных работах, исследуемых на основе нового метода и аксиологического подхода, актуальной проблемой сохранения не только памятников, но и всего исторического города, и передачи их будущим поколениям является реставрация исторических памятников и реконструкция исторических улиц. В исследовании также использовались учебники, учебные пособия и монографии, посвященные реставрации памятников исторических городов, мировому музееведению, музееведению, а также инновациям и инновационным формам в практике охраны объектов недвижимости.

Анализ и выводы. Столкновение двух противоположных тенденций, из которых одна стремится к увеличению количества зданий и территорий, взятых под охрану, а другая - к строительству на их месте новых домов, привело к тому, что проблема исторических комплексов зданий в последнее время стала очень острой. Однако, несмотря на многочисленные предупреждения и резолюции, процесс разрушения ценной исторической застройки продолжается. Во многих средни азиатских городах это привело к невосполнимым потерям культурных ценностей. Например; в Самарканде тоже в таком радиусе проходят концентрические улицы с центрами, сохранившими истинный местный быт. Радиальные же улицы имеют в своём начале и конце центры городского значения, а посередине - такие махаллинские центры, как Ёмини и Мирзо Пулод (XV-XIX вв.) на Пенджикентской улице Самарканда. Радиальные улицы - радиальные это городские транзиты, дублируемые параллельными им махаллинскими пешеходными улицами. Такие улицы - дубли имеются на северо - востоке, востоке, юге и юго - западе Самарканда [3].

Методология охраны исторического Самарканда конкретизировалась с проводившихся в 1991 -1995 гг. работ городского хокимията с Фондом Ага Хана, которые были развиты в международном конкурсе 1992 г. на реконструкцию территории между Регистаном и некогда цитаделью. Международный конкурс 1992 г. на возрождение исторического центра был проведён по инициативе Фонда Ага Хана по культуре. Поступило несколько сот проектов и, из премированных, город получил оригинальные идеи для сохранения исторических памятников, для типов общественной и жилой застройки и для ландшафтной архитектуры. В 1995 г. международными организациями ПРООН и ЮНЕСКО совместно с архитекторами Самарканда исследованы три махалля (Богимайдон-1, -2, -3) севернее Серебряных рядов. В советский период здесь была снесена окружавшая памятники жилая застройка, тем самым нарушена градостроительная масштабность и возведены случайные корпуса новостроек. В махаллях были изучены сохранность зданий, приспособление улиц к новым функциям, их реконструкции. Жилые дома классифицированы как находящиеся в хорошем состоянии, нуждающиеся в частичном или капитальном ремонте, или же рекомендуемые к сносу. Выявлена необходимость программы комплексной реконструкции и специализированных строительных подразделений для реконструкции, контроля, методического руководства и координации (13). в 1997 г. проведён семинар по проблемам сохранения городской среды; в 1998 г., при поддержке хокима города, создана общественная организация Центр по возрождению исторической части Самарканда; в 1999 г. создан Проект планирования центральной части города (совместно с Союзом архитекторов Республики Узбекистан, институтом Узшахарсозлик ЛИТИ, ГлавАПУ Самаркандского городского хокимията). Методология охраны исторического Самарканда охватила, в результате, следующее;

- Реорганизация государственного административного управления необходима из - за недостатка координации и финансирования. Необходимо инвестирование в проекты для исторических зон и поощрение в них местной инициативы и малого бизнеса.

Комитет при хокимияте по работе с махаллями некоммерческий центр по историческому городу координируют действия государственных и неправительственных учреждений.

- Самосохранение махалля частным сектором началось вокруг Гури Амира, Регистана, Биби Ханым и Пенджикентской улицы. При Советах перспектива сноса сдерживала население от вложения денег в реконструкцию. Правительственное решение о предоставлении гражданам права на владение землей способствует проявлению инициативы домовладельцев.

- Совершенствование генеральных планов и проектов детальной планировки.

- вынос общегородских функций оставит только те, что присущи историческому городу. Общегородские функции вторглись в историческое ядро, тогда как остальные его земли и периферия не использованы. Общегородским функциям - место на периферийной магистрали исторического города. Там следует поощрять новые полосы развития, помня, что исторический город - это система разных центров в пешеходных дистанциях друг от друга.

- недопущение транзита и обеспечение исторического города периферийными стоянками и тупиковыми въездами. Нужно восстановить пешеходный исторический город и обслуживать его транспортными вводами. При мини автобусах и маршрутных такси частные автомашины станут невыгодными в историческом городе. На его периферию следует выносить конечные остановки-терминалы.

- совершенствование инфраструктуры и контроль численности населения. Восстановление систем ирригации и дренажа, а также канализация зависят от совершенствования периферийных коллекторов. Электры и газоснабжению «по воздуху» следует предпочесть их подземные линии. Исторический город местами безлюден, а местами перенаселён, - оба эти фактора угрожают его сохранению, - необходим мониторинг, или иначе постоянный контроль, численности населения.

- восстановление махалли, гузаровидаха; реконструкция исторических улиц, возрождение ремесленных центров. Исторический город не хаотичен, и его планировке присущи закономерности, выявленные градостроительной наукой. Градостроительному ШНК следует учесть их и рекомендовать сохранение не только памятников, но и исторического города в целом.

5 - установление уровней охраны; контроль масштаба и высоты, материалов и конструкций; обеспечение традиционного восприятия города. Реставрация памятника перерастает в реконструкцию его среды. Важно соблюдать охранные зоны вокруг памятников, регулировать высоты новых объектов, применять традиционные материалы и методы строительства [3].

О реализации менеджмент-плана по сохранению и реабилитации исторического центра Самарканда направлен в Центр всемирного наследия. Отчёт сообщает: «Расчистка охранной зоны мечети Хазрет Хизр проведена, расчистка охранных зон городища Афрасиаб от малоценной стихийной хаотичной застройки будет продолжена». Генеральным планом Самарканда до 2020г. центральный планировочный район, состоящий из административного центра города, темуридского города, Афросиаба и русского города колониального периода, охвачен кольцом проектной магистрали непрерывного движения, являющейся одновременно и буферным поясом по контуру исторического ядра. Однако как в средний и в арийских многие старинные городские центры, содержащие настоящие сокровища культуры, еще ждут своего часа [3].

На основании вышеизложенных соображений мы пришли к выводу, что возрастающий интерес к историческим памятникам зачастую приводит к росту желания заменить их новыми, приспособленными к современным потребностям. Под влиянием ускоренной урбанизации, технического прогресса и повышения уровня благоустройства квартир старые жилые комплексы заменяются новыми постройками.

Можно себе представить, насколько сложной может быть ситуация, когда сохранение исторических памятников является центральным вопросом быстро развивающегося города.

Первый Президент Республики Узбекистан был главным инициатором этих благородных начинаний. В Самарканде была проведена масштабная реконструкция; была поставлена задача привести в первоначальный вид исторические места города. Памятно, что это был очень сложный процесс – воссоединение современности и древности в одном, но даже в этом был избран особый путь. В реконструкции старинных объектов были использованы научные и исторические концепции, основной целью было восстановление первоначального вида каждого памятника, учитывая исторические данные. В итоге были восстановлены памятники комплекса Регистан, архитектурный ансамбль Чор-су, мемориальный комплекс Ходжи Ахрара Вали, мечеть Джамии, мавзолеев Биби-ханум, мавзолеев Улугбека, медресе Нодира Диван-беги и многие другие исторические объекты.

